

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI**

**“Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishi  
IV-bosqich talabasi**

**MUSTAFOYEV FARRUXJON UMIRZOQOVICHNING**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: “O'ZBEKISTON YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI”  
MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI**

**Ilmiy rahbar: o'qit. Norov Sh. Sh.**

**Navoiy-2011 y**

## **MUNDARIJA**

### **Kirish**

#### **I bob.Yengil va oziq-ovqat sanoati mavzusini o'qitish metodikasi**

- 1.1 “Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusining maktab geografiya kursidagi o`rni va ahamiyati
- 1.2 Mavzuni o`qitishning maqsadlari va vazifalari.
- 1.3 Respublika sanoatiga umumiy tavsif

#### **II bob. O'zbekistonning yengil sanoati tarmoqlari geografiyasি**

- 2.1 O'zbekiston yengil sanoati tarmoqlari
- 2.2 Paxta tozalash va to'machilik
- 2.3 O'zbekiston yengil sanoati tarmoqlari ayrim tarmoqlari

#### **III bob. O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati tarmoqlari geografiyasি**

- 2.1 O'zbekistonning oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga umumiy tarif
- 2.2 Oziq-ovqat sanoatining tarmoqlari tarkibi

### **Xulosa**

### **Foydalangan adabiyotlar**

## **KIRISH.**

Ta’lim sohasidagi yuz bergan o’zgarishlar qatorida pedagogic jarayonning mazmun mohiyati metodlar ayniqsa keskin o’zgardi. Yangi pedagogik texnalogiyalar amalgam tadbiq qilina boshlandi, hozirgi davr ta’lim jarayonini yangi sifat ko’rsatkichlariga olib chiqish mumkin bo’lgan metodlar tizimiga aylandi. Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg’or pedagogik texnalogiyalarga asoslangan holda o’quvchi- yoshlarning bilim olishiga qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori bilimga ega bo’lgan iqtidorli yoshlar yetishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda. O’zbekisyonda bu borada so’ngi yillarda anchagina diqqatga sazovar ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo “Ta’lim to’g’risidagi qonun ” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ”qabul qilindi. sohaviy va hududiy geografik o’zgarishlar, albatta, hozirgi iqtisodiy va siyosiy vaziyat hamda mamlakatimiz oldida turgsn muhim vazifalarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak.Bu borada, ayniqsa, O’zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqilligi, milliy iqtisodiyotning shakillanishi va uning bozor munosabatlariga o’tish xususiyatlarini o’rganish katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan ta’lim – tarbiya samaradorligini oshirish jahon ta’lim standartlari darajasida bilim berish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma’naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g’oyasi ruhida tarbiyalangan, o’z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o’qituvchisi o’z padagogik faoliyatini tubdan o’zgartirishi lozim.

# **I bob.YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI MAVZUSINI O'QITISH**

## **METODIKASI**

### **1.1 “YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI” MAVZUSINING MAKTAB GEOGRAFIYA KURSIDAGI O`RNI VA AHAMIYATI.**

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan belgilanadi, ya`ni geografiya fani qanchalik rivojlansa, maktab geografiyasi ham unga bog`liq hamda shunchalik rivojlanishda bo`ladi. Geografiya ta`limi jarayonida o`quvchilar asosiy geografik tushunchalar va qonuniyatlar tizimini egalashlari kerak. Hozirgi kunda iqtisodiy geografiyanı o`rganish o`quvchilarga iqtisodiy geografik o`rni, tabiiy sharoit va boyliklarga iqtisodiy jihatdan baho berish, hududiy ishlab chiqarish majmuasi, geografik mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, iqtisodiy rayonlar, agrosanoat kompleksi, shaharlar, qishloqlar kabi tushuncha va kategoriyalar haqida bilimlar berishi lozim. Ayniqsa o`quvchilar hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni joylashtirishning muhim qonuniyatları va bozor iqtisodi munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan unga tushunchalarni puxta egallashlari kerak.

8 – sinflarga “Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturiga” muvofiq “Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusida 3 – soat dars ajratilgan. Ushbu dars mobaynida o`quvchilar jonajon Respublikamiz O`zbekistonning yengil sanoati, to`qimachilik sanoati, oziq-ovqat ko`n – poyavzal ishlab chiqarish korxonalari yingil sanoatning boshqa tarmoqlari to`g`risida ma`lumotga ega bo`ladilar.

Mamlakatimizda turli xalq xo`jaligi tarmoqlarida bandligi, paxta tozalash sanoati, un va yorma sanoati va sanoat korxonalarini to`g`ri joylashtirish hususida o`z bilimlarini boyitadilar. Bu mavzu maktab geografiya kursida xalq xo`jaligi tarmoqlari: sanoat, qishloq xo`jaligi, transport madaniy xizmat ko`rsatish va hokazo tarmoqlarini o`rganishda oldin o`tiladi. Chunki yengil va oziq-ovqat sanoati uning o`ziga xos hususiyatlarini o`rganmay turib iqtisodiyotni o`rganish mumkin emas. Iqtisodiyotini yuksaltiruvchi, mamlakatni rivojlantiruvchi va asosiy

kuch bu sanoat va ishlab chiqarish hisoblanadi. Yengil va oziq – ovqat sanoati geografiyasini hususiyatlari o`rganilar ekan, turli tarmoqlarni kelajakda rivojlantirish, yengil sanoat taqrmoqlarini rivojlantirish, qo`shimcha ish o`rinlari barpo etish, ekologik muammolarni echish kabi vazifalar vujudga keladi. Sanoat korxonalarini joylanishi o`rganish shaharlar barpo etish qishloq joylarda shaharcha yashash sharoitini tashkil etishni taqozo etadi. Aholining bilim malaka va soviyasini o`rganish turli ishlab chiqarish korxonalarini hudud bo`yicha oqilona joylashtirish imkonini beradi. Yuqoridagi misollaridan ko`rinib turibdiki, o`rta maktablarga har bir yengil va oziq-ovqat sanoati o`rganmay, uning hususiyatlarini, imkoniyatlarini to`g`ri baholay olmay boshqa tarmoqlarini o`zlashtirishning iloji yo`q. “Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusi har bir o`quvchining o`zi yashayotgan hudud sanoat korxonalari to`g`risida bo`lganligi sababli unda qiziqish va bilim olishiga ishtiyoq uyg`otadi. Yana bu mavzuning ijobiy yutuqlaridan biri: aynan shu mavzudan boshlab o`quvchilar statistik ma'lumotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilishni o`rgana boshlaydilar. Diagrammalar, jadvallarda to`qimachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati turli geografik hususiyatlarini yaqqol kuzatib, ularni taqqoslashni o`rganadilar. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati geografiyasi iqtisodiy ijtimoiy geografiyasining eng muhim tarmoqlaridan biri bo`lib, bu tarmoq boshqa tarmoqlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. 8-sinflarda “Yengil va oziq-ovqat sanoati” puxta o`rganish va keng tushunchaga ega bo`lishi o`quvchilarga kelajakda iqtisodiy – ijtimoiy geografiyani mukammal o`zlashtirishiga imkon yaratadi.

## **1.2 MAVZUNI O`QITISHNING MAQSADLARI VA VAZIFALARI.**

**A) Ta'limiy maqsad.** 8 – sinflarda “Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusini o`qitish jarayonida o`quvchilar “Yengil va oziq-ovqat sanoati” yillar davomida rivojlanish hususiyatlarini, o`rganish va rivojlantirish yo'llarini o`rganish muhim vazifasidir. O`qitish jarayonida qo'llaniladigan xaritalar, jadvallar, grafiklar va rasmlar bilan ishlashni, ularni tahlil qilib, xulosa chiqarishni o`rganadilar. U mavzu mifik geografiya ta'limida iqtisodiy – ijtimoiy geografiyaning deyarli boshlanish mavzularidan bo`lganligi sababli o`quvchilarning

ongida iqtisodiy geografiyasiga oid yangi atamalarni, tushunchalarni shakillantirish lozim. yengil va oziq-ovqat sanoati geografiyaning eng asosiy o`rganish ob`yekti ekanligini, barcha sohalar sanoat korxonalari bilan bog`liqligi, iqtisodiyotning asosi va uning taraqqiyoti ekanligi to`risida bilim, ko`nikmalar hosil qilish lozim.

**B) Tarbiyaviy maqsad.** Mavzuni o`qitish jarayonida o`quvchilar yengil sanoat O`zbekiston sanoatining asosiy tamoqlaridan biri ekanligi va uni rivojlantirish chora tadbirlarini o`rganish zarurligi haqida tushunchaga ega bo`lishadi. Sanoatni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovci muhim omil ekanligi haqida o`quvchilar ongida O`zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish hissini uyg`otadi.

**V) Rivojlantiruvchi maqsad.** Umumta`lim maktablarda “Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusini o`qitish jarayonida quyidagi bilimlar rivojlantiriladi:

- “Yengil va oziq-ovqat sanoati” geografiyasining asosiy tushunchalari.
- Yengil va oziq-ovqat sanoatining yillar davomida rivojlanishi.
- Yengil va oziq – ovqat sanoati korxonalarini joylashtirish tushunchalari.
- Yengil sanoat tarmoqlarini O`zbekistonda yanada yuksaltirish yo'llarini izlab topish.
  - Paxta tozalash, to`qimachilik ipak ishlab chiqarish, ko`nchilik, poyabzal va boshqa yegil sanoat sohalarini yangi texnologik
  - Ishlab chiqarish kuchlarini to`g`ri joylashtirish.
  - Qishloq joylarida oziq-ovqat va yengil sanoatini korxonalarini ko`paytirish va hokazo.

“Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lin standarti va o`quv dasturiga” mufoliq 8-sinflarda “O`zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursida “Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusiga 1 soat dars ajratilgan bo`lib, o`quvchilar shu dars mobaynida Yengil va oziq-ovqat sanoati xususiyatlariiga doir bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`lishlari kerak. Dars jarayonida geografiya ta`limida qo`llaniladigan turli metodlar: hikoya, tushuntirish, suhbat, kartografik

qo'llanmalar va raqamli qo'llanmalar bilan ishlash, darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash metodlaridan foydalanib, o'qituvchi darsni tashkil etsa, darsning unumдорligi ortadi. Hozirgi sharoitda ta'lim metodlari samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Ta'limning turli metodlaridan samarali foydalanish, darsda o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishni va muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Shu sababli ta'lim metodlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Har bir darsda o'qituvchi faqat bitta metoddan foydalanilib, dars o'tmaydi. Aksariyat hollarda geografiya o'qituvchilari ta'limning og'zaki bayon metodlariga kartalar, diogrammalar va karta sxemalar bilan uyg'unlashgan holda darsni tashkil etadilar. N.N. Baranskiy fikri bilan barpo etilayotgan binoning g`ishtidir.

Har bir dars bilim tizimlari va ko`nikmalaridan biron yangilik bersin, yangi mavzu doirasida tushunchalar hosil qilishini va so`ngi o'r ganiladigan mavzular uchun tayanch xizmat qilishi zarur. Har bir darsda o'qituvchi mavzuning mazmuni va mohiyatiga qarab o'qitish metodlarini tanlaydi, shuning uchun bu darslar o'qituvchining mustaqil ijodiy asari bo`lishi talab etiladi.

O'qituvchi darsni boshlashdan oldin mavzuni e'lon qiladi va doskaga yozadi. Bizning misolimizda bu "Yengil va oziq-ovqat sanoati" mavzusi bo'lib, mavzuga doir reja yoziladi. Mavzuning o'tishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bayon etiladi. Dars jarayonida o'qituvchi shu maqsadlarga erishishga harakat qiladi. Endi o'qituvchi mavzuni o'qitishga qo'llashi lozim bo`lgan metodlar bilan birma-bir tanishib chiqaramiz.

**Hikoya** - o'quv materialini bayon qilish shartli bo'lib, asosan tasvirlash harakteriga ega. Bu uslubning ijobiy tomoni o'qituvchi o'quvchilar bilan ko'proq munosabatda bo'ladi. Har bir o'quvchi o'zi yashagan hududida qanday yengil va o'ziq – ovaqat korxonalarini joylashtirish yoki mayjud sanoat korxonalarining ish faoliyati haqida ma'lumotlar to'plash zarurligi uqtiriladi. Hikoya davomida rasmlardan foydalanilsa, hikoya qiziqarli chiqadi. Hikoyada darsning turli bosqichlarida va darsga xotima yasaydi. O'qituvchi hikoyani o'quvchining yoshiga moslab tanlaydi. 8 – sinflarda hikoya juda soddalashib ketmasligi, unda

tushunchalar masalan, Paxta yog'i, meva-sabzovat, non, go'sht, sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari va hokazo tushunchalar va atamalar albatta aks etishi kerak. Hikoya davomida o'qituvchi nazorat savollarni berib borishi, masalan Respublikamizda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish haqida qiziqarli ma'lumotlar berish.

**Tushuntirish** – O'quvchilarga geografik qonuniyatlarini, geografik jarayonlarning mohiyatini ochib berishda keng qo'llaniladi. Bu metod geografiya ta'limida bilimlarni izchil o'rghanish imkonini beradi. Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari va ularni asosiy tushunchalarini o'quvchilar ongida shakillantirish. O'zbekistonda eng asosiy tarmoq hisoblangan paxta sanoatida paxtachilik mashinasozligini, kiyim-kechak va boshqa ko'plab yengil sanoati tarmoqlari haqida mukammal tushuntirilishi zarur.

O'zbekiston hozirgi kundasanoatning keskin o'sayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. bunda albatta yengil va oziq-ovqat sanoatining ulushi yuqoridir.

O'zbekistonda mazkur majmuadagi yingil sanoat asosan paxtachilik va pillachilik negizida tarkib topdi.

Oziq-ovqat sanoati dehqonchilik va chorvachilik negizida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan o'nlab ishlab chiqarish korxonalarini o'z ichiga oladi.

Paxta tozalash sanoati ishlab chiqarish jarayoni bir-biriga bog'liq bo'lган paxta tozalash korxonasi, paxta quritish sexlari va transport xo'jaliklaridan tarkib topadi.

O'qituvchi har bir savollarga javoblarni aniq faktlarga tayangan holda berishi kerak. Tushuntirish bilan birga kartalar, diogrammalar, karta sxemalardan foydalanish ham ijobiy natijalar berib, bu o'quvchilar xotirasida mavzuning chuqur o'rnashishiga sabab bo'ladi. Oqituvchi va o'quvchining ikkita tomonlama aloqasi tushuntirishni takomillashtirishga yordam beradi. Tushuntirish sodda, aniq, ravon bo'lishi lozim.

Maktab geografiya ta'limida aholida ahamiyat kasb etgan-suhbat metodida esa o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rinni tutadi. Bu

metodning bosh talabi mukammal o`ylangan savollar va o`quvchilar qatnashishi mumkin bo`lgan javoblarining puxta tizimidir. Bunda savol aniq bo`lishi, ya`ni o`quvchilar suhbat nima ustida borayotgani hamisha tushunishlari shart. Mavzu e`lon qilingandan so`ng savollar o`rtaga tashlanadi. Suhbat mantiqiy qismlarga bo`linadi, o`qituvchi o`quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarni tuzatadi va to`ldiradi, Shundan so`ng o`quvchlarni yakun yasashga undaydi.

“Yengil va oziq-ovqat sanoati” mavzusi o`tilish jarayonida mazmunan quyidagi turlarga bo`lib savollarni tashkil etish mumkin.

Aniq va to`liq ma`lumotlarni o`zlashtirishda oid savollar. O`zbekiston Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari soni qancha? Sanoatda yengil va oziq-ovqat sanoatining ulushi nechaga teng? O`zbekistonda to`qimachilik sanoatini yanada yuksaltirishning istiqbollari nimalarga bog`liq? Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi nimalarga bog`liq? O`z viloyatingizda joylashgan qanday yengil va oziq-ovqat korxonalarini bilasiz? Mamlakatimizda “Yengil va oziq-ovqat sanoati”ni yuksaltirish va jahon talablariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish istiqbollarini o`ylab topish yo`llari nimalardan iborat?

Kartani bilish va o`qib olishga oid savollar. Masalan: Quyi Amudaryo va Farg`ona iqtisodiy rayonlaridagi yengil va oziq-ovqat korxonalarini qiyoslang? O`zbekistonning sanoat xaritasidan foydalanib eng yirik to`qimachilik korxonalarni aniqlang?

Bunday savol javoblar o`quvchining fikrlash qobiliyatini charxlaydi, ularda mustaqil fikrlash, fanga qiziqish va ilm to`plashga intilish tuyg`ularini rivojlantiradi.

Noto`gri berilgan javoblar o`qituvchi tomonidan to`g`rulanib borilishi va aniq berilgan javoblar o`z navbatiga qo`shimchalar kiritilib, to`ldirilib borishi lozim. Bunda savollar shunday qo`yilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni ifodalashi va shu fikrni davom ettirishi kerak.

Geografiya ta`limida ma`ruza qilish darslari yiriq mavzular o`qitilayotganda va naziriy bilimlar ko`proq mujassamlangan mavzularda qullaniladi. Ma`ruzani

siniv-seminar tizimi bilan qo'shib olib berish maqsadga muvofiqdir. Maktabda ma'ruza quyidagi didaktik talablarga javob berishi lozim:

Ilmiy jihatdan mukammal bo`lishi kerak.

Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko`p jihatdan oydinlashtirishi lozim.

Ma'ruza albatta mazmunan ko`rgazmali bo`lishi shart.

Ma'ruza o`quvchilarni fikrlashga, vokea va hodisalarini tahlil qilishga, umumlashtirishga o`rgatishi kerak.

Yuqorida sanab o`tilgan barcha metodlarni xaritalar, tasvirli qo'llanmalar, ko`rgazmali qurollar, jadval, grafiklar, diogrammalar va karta sxemalardan foydalangan holda dars jarayoni o`tiladi. Masalan: geografiyani xaritasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. O'rta maktablar uchun "O'zbekiston atlasi" nashrdan chiqarilgan va biz o'tadigan mavzuga doir bu atlasda "Yingil sanoat" va "Oziq-ovqat" xaritalar mavjud. Kartaga biz bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo`lmagan voqeа-hodisalar ham tasvirlangan bo`ladi. U nafaqat ko`rgazmali qurolgina bo`lib qolmay, o`rganish ob`yekti, bilim manbai bo`lib ham xizmat qiladi. Xarita yordamida egallangan bilimlar o`quvchilar o`ngida uzoq saqlanib qoladi. Ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda kuzatuvchanlik, tasavvur, mantiqiy fikrlash kabi xizmatlarni tarbiyaladi. O'zbekiston respublikasining Yengil sanoat xaritasida xaritasida barcha viloyatlardagi Sanoat korxonalarining joylashish xususiyatlari shartli belgilar asosida belgilangan. Eng zich joylashgan sanoat hududlar Farg`ona vodiysi, Toshkent viloyati va Zarafshon vodiylariga to`g`ri keladi. Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini Navoiy viloyati aholisini ehtiyojlarini to'la qonli qondira olmaydi. Bu xaritada yana O'zbekistondagi yengil sanoati korxonalarini mamlakatimizning qaysi hududlarida joylashganligi va qanday mahsulotlar ishlab chiqarishi va ularning hajmi tasvirlangan. O`quvchilar bir qarashdanoq Respublikamizdagi yirik, o'rta, kichik korxonalarga ajratishlari mumkin. Oziq-ovqat xaritasida yalpi mahsulot hajmi, salmog`i hudud bo'yicha ranglar yordamida foiz hisobida belgilangan. Bu xaritadan yana har bir viloyatdagi shahar, qishloq joylari resurslarining soni va

hududiy tarkibini aniqlash mumkin. Bu xaritalar o`quvchilarga mavzuga doir amaliy ko`nikmalarning hosil bo`lishiga yordam beradi.

Mavzuning mazmunini to`liq yoritishda darslikdagi diagramma, karta-sxema, jadvallarning ahamiyati katta. Masalan darslikdagi To`qimachilik sanoatining tarmoq doirasidagi aloqalari ya`ni xom-ashyo, tola, ip, xom gazlama, dastlabki ishlash, ip yigirish, to`quvchilik, so`ngi ishlov berish ya`ni pardozlash tayyor mahsulot. Bu jarayonlar asosan bir joyda joylashgan korxonalarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

### 1.3 RESPUBLIKA SANOATIGA UMUMIY TAVSIF

**Sanoat** - bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, Sanoat ob'ektiv reallik (borliq)ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya`ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo`lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ham ob'ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma'lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zaruriyat va imkoniyatlarga ega bo`lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo`lgan.

O'zbekiston sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Eng avvalo, uy sanoati ("Ona qornidagi sanoat"), so`ngra, hunarmandchilik, ya`ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu yerda hunarmandchilikning juda ko'p turlari, ya`ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtarashlik, binokorlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, to`quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrézlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu yerda hunarmandchilik ("Xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Milodning dastlabki asrlarida hozirgi O'zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan.

IX-X asrlarda ip, mato, gilam bo'yicha Xiva va Shosh, mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo'yicha Farg'ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo'yicha Buxoro dunyoga tanilgan. XII-XIII asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yana rivoj topgan. Buxoro, Samarcand, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiriga kelib, O'zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XVIII asrning 60-70-yillarida Angliyada ro'y bergan Sanoat to'ntarilishidan keyin O'zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o'tish boshlandi. Xomashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi.

XX asrda O'zbekiston sanoatida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o'simlik moyi, uzum vinosi, g'isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda.

**Sanoat** moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog'idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeい ko'tarilishiga olib keladi. Mustaqillik davrida jamiyatni tarixiy jihatdan yangilashda ishchilarning avangardlik roli to'g'risida gap yuritilar ekan, faqat ishchilar sinfigina mehnatkashlar ommasining birlashuviga, jipslashuviga va istiqlolni himoya qilishga, mustahkamlashga va uni uzil-kesil ta'minlashga yordam bera oladi, deyish mumkin. Ana shu fikrni O'zbekiston voqe'ligi kun sayin tasdiqlamoqda. O'zbekiston ishchisi respublika yalpi ijtimoiy mahsulotining, milliy daromadning asosiy qismini bunyod etmoqda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda faol ishtirot etayotir.

O'zbekiston respublikasi ishchilari qiyofasida ham barcha rivojlangan mamlakatlar ishchilaridagidek, ongli industrial mehnatkashning va insonlar munosabatining yuksak normalari va umuminsoniy tamoyillarini, qadriyatlarini qaror toptiruvchi, yangi hayot uchun ilg'or kurashchi hislatlari bir butun bo'lib mujassamlashgan.

### **Sanoat tarmoqlari bo'yicha korxonalar soni**

	<b>2000</b>	<b>2002</b>	<b>2003</b>	<b>2004</b>	<b>2005</b>	<b>2006</b>	<b>2007</b>
<b>Jami sanoat</b>	<b>13034</b>	<b>13525</b>	<b>14121</b>	<b>14104</b>	<b>14321</b>	<b>14568</b>	<b>16032</b>
<b>Shu jumladandan:</b> <b>elektroenergetika</b>	68	71	70	63	60	60	58
<b>Yoqtlg'i</b>	27	41	44	44	57	62	65
<b>Shundan neft qazib chiqarish</b>	6	6	6	4	6	4	4
<b>Neftni qayta ishlovchi</b>	4	6	6	9	15	16	19
<b>Gaz</b>	10	18	24	26	30	36	36
<b>Ko'mir</b>	7	11	8	5	6	6	6
<b>Kora metallurgiya</b>	29	33	31	35	44	53	59
<b>Rangli metallurgiya</b>	50	58	57	52	62	55	53
<b>Ximiya va neftximiyasi</b>	353	408	417	2007	492	500	610
<b>Shundfn</b>							
<b>Ximiya</b>	283	305	372	425	435	440	534
<b>Neftximiya</b>	26	37	45	57	57	60	76
<b>Mashinasozlik va metalni qayta ishlash</b>	3150	3155	3184	3142	3166	2885	3092
<b>Shundan</b>							
<b>Mashinasozlik</b>	547	628	679	660	711	744	813
<b>Elektrotexnika</b>	58	82	101	104	105	113	116

<b>Stanoksozlik va asbob uskuna</b>	28	35	39	38	38	40	30
<b>Avtomobil</b>	29	37	37	48	50	61	80
<b>Traktor va qishloq xo'jaligi mashinasozligi</b>	37	45	43	45	48	57	61
<b>o'rmon . yog'ochni qayta ishslash sellyuloza va qog'oz</b>	707	697	768	749	737	737	828
<b>Shundan</b>							
<b>Yog'och tayyorlash</b>	21	11	7	7	8	10	11
<b>Yog'ochni qayta ishslash</b>	637	632	686	638	631	648	727
<b>Sellyuloza va qog'oz</b>	49	54	75	104	98	79	90
<b>Kurilish materiallar sanoati</b>	1946	1904	1917	1853	1821	1792	2011
<b>Yengil sanoat</b>	1642	2090	2280	2206	2371	2502	2797
<b>Shundan</b>							
<b>To'qimachilik</b>	612	856	956	927	1029	1077	1150
<b>Tikuvchi</b>	843	1043	1124	1051	1107	1151	1341
<b>Teri mo'yna va oyoq kiyimi</b>	175	180	193	216	227	259	295
<b>Oziq ovqat</b>	3246	3352	3453	3646	3560	4036	4410
<b>shundan</b>	2376	2319	2436	2522	2525	2995	3118
<b>Go'sht va sut</b>	822	985	968	1087	981	1007	1230
<b>Baliq</b>	48	48	49	37	54	34	62
<b>va boshqalar</b>			1900	1832	1951	1886	2049

**Sanoat** taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir.

O'zbekiston mehnatkashlarining bilim va ko'nikmasi, ishlab chiqarish malakasi va mahorati, madaniy va ma'rifiy saviyasini yuqori darajaga ko'tarish

bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda ham sanoatning yuqori o'rinni tutishini ko'rish mumkin.

**Sanoat** mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy bazasi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. O'zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli bebahodir.

**Sanoat** shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalinish imkoniyatlari yuzaga keladi.

**Sanoat**, ayniqsa og'ir sanoat butun ijtimoiy ishlab chiqarishni idustrlashtirish muammolarini hal etish kalitidir. Shu sababli jamiyatning moddiy-texnika bazasini qaytadan qurish ishini o'zbek halqi Prezident rahbarligida umuman sanoat, xususan, uning eng muhim sohalarini rivojlantirishdan boshladi. Chunki bu sohalar O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy qudratini, xalq farovonligini yanada oshirishning poydevori bo'lib hisoblanar edi, bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil etishning eng oliy turi – konsentratsiyaning yuqori darajasi bilan kichik biznes va tadbirkorlikni uyg'unlashtirish asosida ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari-ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish ham sanoat sohasida hukmronlik qiladi va yaxshi samaralar beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobat, ya'ni bellashuv, raqiblar kurashi ham sanoat sohasida rivoj topadi. Ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash

asosida uning samaradorligini ko'tarish uchun harakat va boshqa mehnat an'analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va kelmoqda.


Mustaqillikning afzallliklari va Davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning yetakchi o'rmini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning yechimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda.

## **II bob. O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOATI TARMOQLARI**

### **GEOGRFIYASI**

#### **2.1 O'ZBEKISTON YENGIL SANOATI TARMOQLARI**

Yengil sanoat tarmog'i barcha rivojlangan mamlakatlar kabi bizning respublikamizda ham davlat byudjetiga tushadigan asosiy daromadlar manbaidan biri bo'lib hisoblanadi. Yengil sanoat keng ko'lamli va sertarmoq sohadir. O'zbekiston iqtisodiyotida yengil sanoatning ulushi alohida va ko'p qirralidir. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil sanoat korxonalari respublika agrosanoat majmuining tarkibiy qismidir. U o'z ichiga paxta va ipak tolalarini qayta ishslash, charm mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqalarni qamrab oladi.




Bu soha respublika sanoatini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi hamda mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim rol o'ynaydi. Chunki:  
-birinchidan, bu sohada keng xalq iste'mol mollari ishlab chiqariladi;  
-ikkinchidan, sohada ko'p ishchilar faoliyat ko'rsatadilar hamda qo'shimcha ish joylarini yaratish imkoniyati yuqori;

-uchinchidan, sohadagi eksprot salohiyatining ko'tarilishi mamlakat iqtisodiy salohiyatini o'sishi va pirovard natijada, respublikada aholi farovanligining o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir.

XX asr boshlarida O'zbekistonda yengil sanoat sohasi asosan paxtani qayta ishlash korxonalaridan iborat bo'lib, yalpi sanoat mahsulotining qariyb 4G'5 qismi shu sohaga to'g'ri kelgan. 1920-yillardan paxta tozalash zavodlari, pillakashlik, yigiruv-to'quv, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari qurila boshladi.

Hozirgi davrda O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial kompleks bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 190 ga yaqin korxona bor. Ularning asosiy qismi-to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj va chinnisozlik korxonalari «o'zbekengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (2002), pillakashlik va ipakchilik korxonalari «o'zbek ipagi» uyushmasi (1998), charm va poyafzal korxonalari «o'zbekcharmpoyafzali» uyushmasi (2000) tarkibiga kiradi.

Yengil sanoat tarmog'i aholining iste'mol buyumlariga, ya'ni kiyim-kechak, poyafzal, trikotaj mahsulotlariga bo'lган shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi. Shu bilan bir qatorda, muzkur buyumlarni ishlab chiqarishga hamda sanoatning boshqa tarmoqlarida foydalilaniladigan materiallar (texnik gazlama, ip, tabiiy va sun'iy charm, mo'yna va hokazolar) ni tayyorlab berishga xizmat qiladi. Ushbu tarmoqning barcha korxonalari «o'zbekengilsanoat» DAK tasarrufida bo'lib, bir qator yo'naliishlarda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi va quyidagi turlarga bo'linadi.



*1-jadval. «o'zbekengilsanoat» DAK ning tashkiliy tuzilmasi*

Hozirgi kunga kelib, ya'ni joriy 2008-yilgacha «o'zbekengilsanoat» DAK bo'yicha jami 196 ta korxona ro'yhatga olingan.

Respublika sanoatida band bo'lgan xodimlarning deyarli uchdan bir qismi yengil sanoat tarmog'iga to'g'ri keladi. O'zbekiston sanoat mahsuloti umumiy hajmida yengil sanoat salmog'i 16,9 % ni tashkil etadi.

Keyingi yillarda respublika hukumati tomonidan yengil sanoat korxonalariga xorij investitsiyalarini kiritishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bevosita davlat kafolati va to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi yil sayin o'sib bormoqda. Agar tarmoqqa kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 1995 yilda 37,37 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yil yakunlariga ko'ra 1158,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

Xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish hajmining 50 % respublika yengil sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Respublika yengil sanoati tarmoqlarida ip gazlama, jun gazlama, shoyi gazlama, trikotaj mahsulotlari, paypoqlar, poyafzal, gilam va gilam mahsulotlari, chinni-fayans buyumlari va boshqalar ishlab

chiqariladi. Respublika yengil sanoatida ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda berilgan.

**O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat korxonalri tomonidan iste'mol tovarlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish dinamikasi (foizda)**

*2-jadval*

Mahsulotlar	2005	2006	2007
Paxta matolari	106,9	97,8	82,0
Ipak matolari	97,4	100,3	91,4
Gilam va gilam mahsulotlari	108,3	2,8 m	140,2
Paypoq mahsulotlari	77,0	188,4	110,0
Trikotaj mahsulotlari	82,4	100,6	95,9
Poyafzal	109,5	99,9	81,9

2-jadvalda yengil sanoat korxonalari tomonidan iste'mol tovarlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish dinamikasi keltirilgan bo'lib, paxta matolari ishlab chiqarish 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 9,1% ga, 2007 yilda 2006 yilga nisbatan 15,8 % ga pasaygan. Ipak matolari ishlab chiqarish 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 2,9% ga, 2007 yilda 2006 yilga nisbatan 8,9 % ga pasaygan. Gilam vag ilam mahsulotlari ishlab chiqarish 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 2,8 martaga, 2007 yilda 2006 yilga nisbatan 31,9% ga pasaygan. Paypoq mahmulotlari ishlab chiqarish 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 111,4% ga, 2007 yilda 2006 yilga nisbatan 78,4% ga pasaygan. Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 18,2% ga, 2007 yilda 2006 yilga nisbatan 4,7 % ga pasaygan. Poyafzal ishlab chiqarish 2006 yilda 2005 yilga nisbatan 9,6% ga, 2007 yilda 2006 yilga nisbatan 18 % ga pasaygan.

**«O’zbekengilsanoat» DAKda mahsulotlar assortimenti bo’yicha ishlab  
chiqarish dinamikasi**

3-jadval

<b>Mahsulotlar turi</b>	<b>o’lchov</b>	<b>Yillar</b>		
	<b>birligi</b>	<b>2005</b>	<b>2006</b>	<b>2007</b>
1 Ip-gazlama, yigirilgan ip	ming tonna	107,2	114,2	127,2
2 Ip-gazlama, gazmollar	mln. kv. m	364,9	372,0	348,3
3 To’qilgan gazmol turidagi matolar	mln. kv. m	22,7	22,35	22,96
4 Gilamlar	mln. kv. m	1190,0	1262,0	1265,0
5 Trikotaj buyumlar	mln. dona	30,5	30,73	31,9
6 Paypoqlar	mln. poy	9,18	9,2	9,2
7 Tikilgan mahsulotlar	mln. so’m	4632,0	5729,4	6463,0

3-jadvaldan ko’rinib turibdiki, 2007 yilda ip-gazlama, yigirilgan ip, to’qilgan gazmol turidagi matolar, gilamlar, trikotaj buyumlar va tikilgan mahsulotlar ishlab chiqarish dinamikasi 2005 va 2006 yillarga nisbatan o’sgan. Paypoqlar ishlab chiqarish dinamikasi o’zgarmagan. Ip-gazlama, gazmollar ishlab chiqarish dinamikasi esa kamaygan.

2006-2007 yillar uchun yengil sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish quyidagicha ta’minlandi (4-jadval).

## Yengil sanoat mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarish

4-jadval

№	Mahsulot turlari	o'lchov birligi	Haqiqiy ifodalanganda		Kelasi davrga nisbatan foizda	
			2006 yil	2007 yil	2006 yil	2007 yil
1	Paxta tolasi	ming tonna	976,7	1187,6	103,3	121,6
2	Paxta ipi	ming tonna	159,1	140,9	99,6	91,1
3	Ipak ipi	tonna	676,7	564,4	117,9	81,6

4-jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2007 yilda mahsulot turlari ichida faqatgina paxta tolasini ishlab chiqarish 2006 yildagiga nisbatan 121,6 % ga ortgan. XG'b va ipak iplari ishlab chiqarish esa mos ravishda 61,1 va 86,1 % ga kamaygan. Bu natija yengil sanoat mahsulotlari ichida asosiy o'rinni egallaydigan paxta tolasiga bo'lган talabning qolgan mahsulot turlariga nisbatan ancha yuqori ekanligidan dalolat berib turibdi. 2007 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 30 mlrd. so'mdan 460 mlrd. so'mga yetkazildi.

Umuman yengil sanoatning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, jahon miqyosida yengil sanoat tarmog'i mahsulotlariga bo'lган talab juda katta. Shuning uchun mamlakatimiz yengil sanoatiga qo'shimcha investitsiyalarini kiritish zarurati oshmoqda. Yengil sanoat korxonalariga chet el investitsiyalarining keng miqyosdagi jalg etilishi nafaqat ishlab chiqarish hajmi va sifatini o'sishiga, balki respublika iqtisodiyotining tarkibiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

### **2.2 PAXTA TOZALASH VA TO'MACHILIK SANOATI**

Paxta tozalash sanoati yengil sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o'rinda turadi, ip yigiruv, to'qimachilik, yog'-moy, kimyo sanoati tarmoqlariga xom ashyo yetkazib beradi. Mamlakat rivojlangan va zamonaviy texnologiyaga ega bo'lган paxta tozalash sanoatiga ega. Paxta tolasi 40 ga yaqin xorijiy mamlakatlarga, jumladan Xitoy, Buyuk Britaniya, Belgiya, Janubiy Koreya, Shveysariya, AQSh, Turkiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi.

O'zbekiston jahonda paxta yetishtirish bo'yicha 5-o'rinni, paxta tolasi eksporti bo'yicha 2-o'rinni (AQSh dan keyin) egallaydi.

Birinchi bug'da ishlaydigan paxta tozalash zavodi Toshkentda 1874 yilda qurilgan. Rossiya imperiyasi o'rta Osiyoni bosib olganidan keyin paxta xom ashyosiga bo'lган talabning ortishi bilan O'zbekistonda paxta tozalash sanoati tez rivojlantirildi. 1885 yilda 9, 1890 yilda 27, 1914 yilda 208 ta paxta tozalash zavodi ishladi. Paxtachilik g'alla ekinlarini siqib chiqara boshladi. Keyingi 80 yillar davomida paxta tolasi ishlab chiqarish deyarli 10 marta ko'paydi. 1980 yilda 120 ta paxta zavodi, 546 ta tayyorlov maskanlari ishladi, eng ko'p rekord-1745,3 ming tonna tola va 3191,5 ming tonna chigit ishlab chiqarildi.

50-60 yillarda tarmoqdagi korxonalar yangi yuqori unumli texnologiyalar bilan qayta jihozlandi. Paxtaning aksariyat qismi mashinada terib olinadigan bo'ldi. Paxtadan tola chiqishi 1940 yilda 33,6 % ni, 1984 yilda 27,1 % ni, 1990 yillarga kelib 30,7 % ni tashkil etdi. 1990 yildan respublikada paxta ekiladigan maydonlar bir qadar kamaytirilishi hisobiga don ekinlari maydoni kengaytirildi. Respublikadagi paxta tozalash sanoati yagona boshqaruvida ishlaydigan paxta tayyorlash maskanlari, quritish-tozalash sexlari, transport xo'jaliklari, paxta tozalash zavodlari, ilmiy ilmiy chiqarish birlashmasidan iborat.

Tarmoqda 128 ta paxta tozalash zavodi, 464 ta paxta tayyorlov maskani bor (2005). Eng yirik paxta tozalash zavodlari: Qorako'l (1898), G'ijduvon (1939), Kattaqo'rg'on (1881), Qo'rg'ontepa (1924), Hazorasp (1890), 1-Qo'qon (1907), Quva (1909), Juma (1953), Denov (1932) va boshqa joylarda joylashgan (yillik quvvati 50-60 ming tonna va undan ortiq paxtani qayta ishlashga mo'ljallangan). Tolasi ajratib olingan texnik chigit yog'-moy korxonalarida qayta ishlanadi. Tarmoq korxonalarida yiliga qariyb 120-130 ming t urug'lik chigit tayyorlanadi. Keyingi yillarda respublikada don mustaqilligiga erishish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida paxta ekiladigan yer maydonlari keskin qisqartirilishi munosabati bilan paxta xom ashyosi va undan olinadigan mahsulotlarning kamayishi kuzatildi. Shunga qaramasdan soha mutaxassislarining sa'y-harakatlari evaziga tola chiqishini 1990 yil 30,7 % dan 2004 yil 32,7 %

gacha, yuqori sanoat navli mahsulot hajmini 35 dan 70 % gacha ko'tarishga erishildi.

Hozirgi bosqichda paxta tozalash sanoatida yangi mikroprotsesslar texnikasi va axborot-kommunokatsiya tizimlariga asoslangan avtomatlashtirilgan texnika, texnologiyalar jadal sur'atlarda joriy etilmoqda. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyasini o'rganish va joriy etish, tarmoq korxonalarida paxta toiasi bo'yicha jahon standartlariga o'tish uchun AQSh, Shveysariya mamlakatlaridagi firmalarda ishlab chiqarilgan uskunalar va texnologiyani qo'llash sohasida xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa xorijiy davlatlar firmalari bilan hamkorlikda Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'stonda paxtani qayta ishlashdan tayyor to'qimachilik mahsuloti ishlab chiqarishga qadar jarayonlar qamrab olingan majmular qurilishi boshlandi. 2003 yildan boshlab paxta toiasi eksportiga xizmat ko'rsatadigan mintaqaviy terminallar qurildi va ishga tushirildi. Keyingi yillarda 13 ta yangi paxta tozalash zavodlari foydalanishga topshirildi. 51 ta paxta zavodi rekonstruksiya qilindi. 30 dan ortiq urug'lik chigit tayyorlanadigan ixtisoslashtirilgan paxta zavodlari eng zamонавији uskunalar bilan jihozlandi.

#### **O'zbekiston paxta tozalash sanoatining asosiy mahsulotlari, ming t.**

<b>Yillar</b>	<b>Tola</b>	<b>Lint</b>	<b>Chigit</b>
1940	534,0	15,3	982,6
1950	640,8	32,2	1091,1
1960	1063,8	113,4	1736,2
1970	1384,0	128,9	2387,1
1980	1745,3	217,6	3191,5
1990	1635,7	183,9	2741,7
1991	1531,6	171,6	2658,2

1992	1403,6	149,1	2304,3
1993	1259,0	133,6	2222,8
1994	1390,4	437,0	2428,4
1995	1243,2	103,2	2182,5
2000	962,5	73,2	1498,8
2001	1055,6	77,7	1650,3
2002	1002,5	68,5	1564,0
2003	892,9	58,9	1402,5
2004	976,7	64,9	1534,8
2005	1187,6	79,0	1835,4

Paxta tozalash sanoati bo'yicha ishlab chiqarish ishlari 1990 yilgacha Toshkent shahrida joylashgan Paxta sellyulozasi kimyosi va texnologiyasi ishlab chiqarish instituti (1959), paxta tozalash sanoati Markaziy ishlab chiqarish institutida olib borilgan. 1987 yil dekabrda «Paxta sanoati» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, 1992 yilda uning negizida Paxta tozalash ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi aksiyadorlik jamiyatni tashkil etildi.

1990 yilgacha paxta tolasini chetga sotish bilan sobiq SSSR Yengil sanoat vazirligining «Eksportlen» bosh boshqarmasi shug'ullangan. 1992 yil 7 noyabrdagi Respublika Prezidenti farmoni bilan paxtani qayta ishlash va paxta mahsulotlarini saotish bilan shug'ullanuvchi «o'zdavpaxtasanoatsotish» davlat-aksiyadorlik uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibiga 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi paxta tozalash sanoati birlashmalari, «Toshkent kanop sanoati» birlashmasi, Respublika ilmiy markazi, paxta tolasini standartlash va sertifikatlash «Sifat» birlashmasi kirdi. 2001 yil 12 iyunda «o'zdavpaxtasanoatsotish» negizida «o'zpaxtasanoat» aksiyadorlik uyushmasi tuzildi. Uyushma tarkibida 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston hududiy paxta tozalash sanoati birlashmalari va «Paxta tozalash IIChB» aksiyadorlik jamiyatni bor.

Respublika paxta tozalash sanoati tizimidagi korxonalar to’liq aksiyalashtirildi. Respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasining anchagini qismi (85-90 %) eksportga chiqariladi.

1993 yildan O’zbekiston jahondagi 6 Xalqaro paxta tolesi savdosi birjalaridan eng yirik Liverpul (Kotton LTD) paxta birjası (Angliya) bilan hamkorlik qilmoqda. O’zbekiston eksporti umumiy hajmida paxta tolesi eksporti 19,1 % ni tashkil qildi (2005).

## **TO’QIMACHILIK SANOATI**

Yengil sanoatning yirik tarmoqlaridan biri bo’lgan to’qimachilik sanoatida paxta, jun, kanop va boshqa xom ashyolar qayta ishlanadi, turli gazlamalar tayyorланади, shuningdek, trikotaj buyumlar, to’quv-galantereya buyumlari va boshqalar ishlab chiqariladi. To’qimachilik sanoatining salmog’i yengil sanoat tarmoqlari ichida eng yuqori bo’lib, statistik ma’lumotlarga qaraganda, hozirgi kunga kelib u 65 % dan ko’proqni tashkil qilmoqda.

O’zbekistonda to’qimachilik hunarmandchilikning rivojlangan tarmog’i sifatida uzoq tarixga ega. Bu yerda tayyorlangan gazmollar (atlas, zandanachi, baxmal, beqasam, olacha) o’rta asrlarda Buyuk ipak yo’li orqali Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqarilgan. Lekin sanoat usulida gazlamalar ishlab chiqarish XX asrning 20-yillaridan boshlandi. 1930 yilda Farg’ona ir yigirish-to’qish fabrikasi ishga tushirildi (hozir «Farg’ona to’qimachilik kombinati» aksiyadorlik jamiyati), 1932 yildan Toshkent to’qimachilik kombinatini qurish boshlandi. 1934 yil bu kombinat gazlama ishlab chiqara boshladı. Toshkent to’qimachilik kombinat iva Farg’ona yigiruv-to’quv fabrikasi 1945 yilda respublikada ishlab chiqarilgan jami ip gazlamaning 95,4 % ni berdi. Buxoro to’qimachilik kombinati (1973-76), Andijon ip gazlama kombinatining 1-navbatı (1981), Pop noto’qima materiallar kombinati (1977), Xiva gilam kombinati qurib ishga tushirildi. 80-yillarda yirik to’qimachilik korxonalarida bir qancha filiallar ochildi. Jumladan, Toshkent shahrining o’zida 3 ta fabrika qurildi. Shuningdek Paxtaobod, Chuvama, Qo’rg’ontepa, Marhamatda hamda G’ijduvon va Vobkentda

fabrikalar qurilib ishga tushirildi. Filiallarda ham ishlab chiqarish texnologik yiklining tugal bo'lishiga erishildi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jahon bozorida raqobatbardosh ip gazlama ishlab chiqarishni ko'paytirishdan iborat. 1995-2005 yillarda O'zbekiston to'qimachilik sanoatida Janubiy Koreyaning «Kabul tekstaylz», Turkiyaning «Tipash», «Bursel», Yaponianing «Marubeni», Sh veysariyaning «Vimateks» va boshqa kompaniya va firmalari ishtirokida turli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar ishga tushirildi. Bu korxonalar o'z mahsulotlarining asosiy qismini eksportga chiqaradi. 1995 yildan boshlab tarmoqqa chet el investitsiyalarini jalb etish, korxonalarini eng ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish yangi bosqichga ko'tarildi, shu jumladan Germaniya, Yaponiya, Turkiya, AQSh, Koreya Respublikasi bilan yirik quvvatli ip yigiruv-to'quv qo'shma korxonalari ishga tushirildi. Ilgari O'zbekistonda ishlab chiqariladigan paxta tolasining faqat 10 % respublika to'qimachilik sanoatida foydalanilgan. 2004 yilda sanoat korxonalarida 255 ming tonna tola qayta ishlandi (respublika bo'yicha jami ishlab chiqarilgan tolanning 26,2 %). Tarmoqda 34 ta aksiyadorlik jamiyati, 11 ma'suliyati cheklangan jamiyat, 28 ta qo'shma korxona, 1 xususiy va 1 davlat korxonalarini faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatini rivojlantirish maqsadida hukumat dasturi tuzilgan. Bu dasturga ko'ra umumiy qiymati 1,2 mlrd AQSh dollariga teng 94 ta loyiha amalga oshirilishi, 40 ta yangi to'qimachilik korxonasi qurilishi, 46 mingdan ortiq ish o'rinalarini tashkil etish, respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasining 50 % ni respublikaning o'zida qayta ishlashga erishish belgilangan.

### **TRIKOTAJ SANOATI**

Trikotaj sanoati respublikada 30-40 yillarda shakllandi. 1939 yilda o'rta Osiyoda eng yirik hisoblangan Qo'qon paypoq fabrikasi (1943 yildan kombinat) ishga tushirildi. Urush yillarida Andijon va Toshkent shaharlarida trikotaj fabrikalari qurildi. 50-60-yillarda Samarqand (1950), Toshkent (1960), Buxoro

(1961), Andijon (1967) shaharlarda trikotaj kiyimlar fabrikalari qurildi. Tarmoqdagi eng yirik korxona Toshkentda 1942 yilda ishga tushirilgan «Malika» trikotaj ishlab chiqarish birlashmasida erkaklar, ayollar va bolalarning 200 xildan ortiq ustki va ichki trikotaj kiyimlari ishlab chiqarilgan.

80-90-yillarda trikotaj korxonalar yangi uskunalar bilan bilan jihozlandi, yangi korxonalar qurildi, «Malika» ishlab chiqarish birlashmasi, Buxoro, Samarqand trikotaj fabrikalari, Qo'qon paypoq to'quv kombinati tubdan rekonstruksiya qilindi, Oltinko'l trikotaj matolar fabrikasi, Qorasuv va Jizzax paypoq fabrikalari ishga tushirildi. Xo'jobod (1985), Shahrixon (1986), Chortoq (1986), Shahrisabz (1993) da trikotaj-tikuvchilik fabrikalari foydalanishga topshirildi.

90-yillardan boshlab tarmoqda korxonalar davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish keng miqyosda amalga oshirildi, mulkchilik shakllari o'zgartirildi. Tarmoqda 11 aksiyadorlik jamiyati, 14 qo'shma korxona, 4 xususiy korxona faoliyat ko'rsatadi. Eng yirik korxonalar: «Bofanda», «Gurlan», «Malika», «Namangantrikotaj» aksiyadorlik jamiyatları, «Oqsaroyto'qimachi», «Chinozto'qimachi», «Sag'bonteks», «Shavotteks», «Yadem tekstil», «Osiyo tekstil», «Bursel-Toshkent tekstil» qo'shma korxonaları. 2005 yilda respublikada trikotaj sanoati korxonalarida 32,1 mln dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarildi.

## **TIKUVCHILIK SANOATI**

Yengil sanoat tarmog'inining yetakchi bo'g'inlaridan biri tikuvchilik sanoati hisoblanadi. Ushbu bo'g'in aholi uchun kiyim-kechaklar tayyorlaydi hamda uning salmog'i yengil sanoat umumiy hajmining 1G'5 qismini tashkil qiladi.

Tikuvchilik sanoati yengil sanoatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga, u sanoatdagi barcha tarmoqlarni birlashtirib turuvchi asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Tikuvchilik sanoati to'qimachilik sanoatidan turli xil gazlamalar (ip, jun, shoyi va hk. gazlamalar) ni oladi. Gazlamalar salmog'i tikuv buyumlari tannarxida taxminan 80-85 % ni tashkil qiladi. Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarishning bir tekisda, uzluksiz davom etishi to'qimachilik sanoati tarmoqlarining rivojlanishiga ham bog'liqdir.

Tikuvchilik korxonalarini ishlab chiqaradigan mahsulotlar aholining kiyim-kechaklarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, shu bois, tikuv korxonalarining hamma iqtisodiy tumanlarda mehnat zahiralarini hisobga olgan holda joylashtirish talab qilinadi. Chunki tayyor kiyim-kechaklarni uzoq joylarga olib borish, birinchidan, gazlamalarni olib borishga nisbatan 1,5 marotaba qimmatga tushadi; ikkinchidan, tayyor mahsulotlarning tovar ko'rinishini saqlash qiyinroq; uchinchidan, temir yo'l vagonlari va ko'tarish hajmi gazlamalarni tashishga nisbatan ikki marotaba kamayadi. Tikuvchilik korxonalarini birinchi galda bichish-tikish ishlari an'ana bo'lgan hududlarda va ortiqcha mehnat zahiralariga ega bo'lgan tumanlarda, aholi zich joylashgan maskanlarda qurish maqsadga muvofiqdir. Tikuvchilik sanoati korxonalarining bosh vazifasi-assortimenti va mavsumbopligi, bichimi, estetik ko'rinishi, sifati jihatidan aholining va zamon talablariga mos keladigan kiyoim-kechaklar bilan ta'minlash hamda xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

O'zbekistonda tikuvchilik hunarmandchilikdagi kasb tarzida katta tarixga ega. Qadimdan qishloq-shaharlarda tikuvchilik kasbi ustalari-maxsus chevarlar qo'lda chopon, kiyik-kechak, ko'rpa-to'shak, ro'zg'or buyumlarini buyurtmalarga ko'ra tikig bilan shug'ullanganlar. Gulko'ra, zarbof to'n, choyshab, cho'zanna, kashtan kabi buyurtmalar tikish san'at darajasiga ko'tarilgan.

O'zbekistonda eng birinchi tikuvchilik korxonasi 1907 yil Toshkentdag'i ulkan «Lui Zalm va uning o'g'llari aksiyadorlik jamiyatiga qarashli tikuvchilik fabrikasi edi. XX asrning 20-yillaridan tikuvchilik yengil sanoatning yirik tarmog'iga aylandi. 1926 yilda Toshkentda «Qizil tong» tikuv fabrikasi, keyinroq 1-tikuvchilik zavodi ishga tushirildi. Urushgacha bo'lgan davrda Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Urganch, Andijonda yangi korxonalar qurildi. Urush davrida Chirchiq, Qarshi, Namangan shaharlarida yirik tikuvchilik fabrikalari ishga tushdi. Respublikadagi tikuvchilik korxonalarida sho'rolar armiyasi uchun kiyim-kechak va boshqa anjomlar qurildi.

60-yillarda Toshkentda 2-tikuvchilik fabrikasi (1962), Y.Oxunboboyev nomidagi Toshkent bosh kiyimlar fabrikasi (1963), Xiva tikuvchilik fabrikasi

(1965) ishga tushirildi. 70-yillardan samaradorlikni oshirish maqsadida ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. Ayni paytda mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan kichik shaharlar va shaharchalarda tikuvchilik korxonalarini qurish avj oldi. Shu davrda ixtisoslashgan 7 tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi va 40 dan ortiq filiallar tashkil etildi. 1989 yildan tarmoq sanoat korxonalarini yangi texnologik liniyalar bilan jihozlashda rivojlangan kapitalistik davlatlar firmalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 1989-1991 yillarda Toshkent «Qizil tong», Samarqand «8 mart» tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmalarida Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya, Italiya firmalari ishtirokida ish firmalarning kompleks mexanizatsiyalashgan liniyalari o'rnatildi. 1994 yildan tarmoqda keng xususiy lashtirish o'tkazildi, davlat korxonalarini negizida aksiyadorlik jamiyatlari, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy tikuvchilik korxonalarini, yakka buyurtma asosida kiyim-kechak tikadigan yuzlab ateletlar, chet el investitsiyalari ishtirokida yangi tikuvchilik qo'shma korxonalarini ochildi. Tarmoqdagi yirik korxonalar «o'zbekengilsanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradi. Tarmoqdagi eng yirki korxonalar: «8 mart» nomli (1930), «Modalar uyi» (1962), «G'uncha» (1943), «Lola», «Oxunboboyev nomli bosh kiyimlar fabrikasi» (1963), «Feruz Xorazm» (1937), «Xiva» (1965), «Yulduz» (1941) aksiyadorlik jamiyatlari, «Em teks» (2004), «Atlasmen» (1999) qo'shma korxonalarini va boshqalar.

Tikuvchilik korxonalarida kompleks mexanizatsiyalashgan liniya va potoklar joriy etilgan. Korxonalarda yangi texnologiyalar va yangi materiallar o'zlashtirilmoqda. Juhon standartlari talablariga javob beradigan kiyim-kechak, milliy buyumlar chet ellarga eksport qilinadi. Respublikada tikuvchilik mahsulotlari, ayniqsa milliy buyumlar va kiyim-kechak mahalliy sanoat korxonalarida ham ishlab chiqariladi.

## **2.3 O'ZBEKISTON YENGIL SANOATI TARMOQLARI AYRIM TARMOQLARI**

### **IPAKCHILIK SANOATI**

Ipakchilik sanoatida ipak, kimyoviy va aralash iplardan mahsulotlar ishlab chiqariladi. O'zbekistonda pillakashlik qadim tarixga ega. Qadimdan Marg'ilon, Namangan, Qo'qon, Buxoro, Samarqand, Xo'jand kabi shaharlar o'rta Osiyodagi shoyi gazlamalar ishlab chiqarish markazlari bo'lган. Shoyi gazmollar Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga ham chiqarilgan. Pilladan yarim kustar holda (qozonlarda qaynatib), qo'l charxlarida kalava qilib ipak olingan. 1913 yilda O'zbekistonda qariyb 4 ming tonna pila yetishtirilgan, uning aksariyat qismi rus ishbilarmonlari qo'liga o'tib, qayta ishlash uchun Italiya va Fransiyaga jo'natilgan.


1921 yildan O'zbekistonda 56 qozonli mexanik stanok o'rnatilgan birinchi pillakashlik fabrikasi Farg'ona shahrida ish boshladi. 1927-1932 yillarda Samarqand, Buxoro, Marg'ilon shaharlarida pillakashlik fabrikalari ishga tushirildi. 1937 yildan sun'iy ipak gazlamalar to'qish ham boshlandi.

1957 yilda O'zbekiston ipakchilik ishlab chiqarish institutida ipak o'raydigan avtomat stanok yaratildi. 90-yillar boshida respublikada 9 ta yirik korxona: Marg'ilon (1926), Farg'ona (1926), Samarqand (1927), Buxoro (1927), Toshkent (1959), Namangan (1966), Urganch (1975), Shahrisabz (1976), Buloqboshi (1989) pillakashlik fabrikalari, ularning 12 filiali ishladi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin 1993 yildan pilla yetishtirish davlat buyurtmasidan chiqarildi, uni xarid qilishda kelishilgan narxlar joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 3-apreldagi «Respublika pillachilik sohasini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qaroriga asosan pillachilik va ipakchilik tarmoqlarida yagona rahbarlikni amalga oshiradigan «Shoyi» aksiyadorlik kompaniyasi va «Pillaxolding» xolding kompaniyasini o'z ichiga olgan «o'zbek ipagi» uyushmasi tashkil etildi (2003 yil 22-dekabrda kompaniyalar tugatildi, ularning vazifalari

uyushmaga berildi). «o’zbek ipagi» uyushmasi tarkibida «Atlas» (Namangan), «Buyuk Ipak yo’li» (Farg’ona), «Buxoro ipagi», «Buloqboshi ipagi» (Andijon viloyati Buloqboshi shahri), «Ipakchi» (Namangan viloyati Uychi shahri), «Kumush» (Shahrisabz), «Tola» (Toshkent shahri), «Turon shoyisi» (Marg’ilon), «Xorazm ipagi» (Urganch), «Hujum» (Samarqand shahri) aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko’rsatadi. Shuningdek, tarmoqda Yaponiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur firmalari va kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan 7 ta qo’shma korxona bor. Bu korxonalarda rsepublikada yetishtirilgan jami pilla (2005 yilda 16,2 ming tonna) qayta ishlandi. 2005 yilda 564,4 tonna ipak tola ishlab chiqarildi.

Shoyi to’qish sanoati sohasida 90-yillar boshiga qadar Marg’ilon shoyi kombinati (1928), Marg’ilon «Atlas» (1925) va Namangan (1966) shoyi ishlab chiqarish birlashmalari, Namangan abrli gazlamalar kombinati (1925), Samarqand shoyi ishlab chiqarish birlashmasi (1934), Qo’qon shoyi to’qish fabrikasi (1926), Sho’rchi shoyi to’qish fabrikasi (1926) ishladi. Tabiiy ipakdan milliy gazlamalar: atlas, xonatlas, beqasam, shoyi (ishlab chiqariladigan umumiyl gazmollar hajmining 70 % dan ko’prog’i), krepdeshin, shuningdek, plashbop, kostyumbop, astarbop gazlamalar, abrli, tukli va jakkard gazlamalar, shtapel, viskoza va aralash tolalardan kiyim-kechak tikiladigan gazmollar ishlab chiqarilgan.

Ўзбекистонда жун ва синтетик толали газламалар ишлаб чиқариш





Дунёга машхур ўзбек ипаги


Uzbek silk, famous all over the world



«o'zbek ipagi» uyushmasi tarkibida «Alisher Navoiy» (Marg'ilon), «Atlas» (Namangan), «Izboskan shoyi to'qish fabrikasi» (Poytug'), «Marg'ilon ipak

gazlamasi», «Turon shoyisi» (Marg'ilon), «Qo'qon shoyi-atlas to'qish», «Musaffo» (Samarqand) aksiyadorlik jamiyatlari ishlaydi.

#### енгил саноат махсулотларини ишлаб чмқариш



### KO'N-POYABZAL SANOATI

Ko'n-poyabzal sanoati mahalliy xom ashyo-so'yilgan hayvonlar terisidan yumshoq va qattiq charm, tabiiy va sun'iy charmdan poyabzal, shuningdek, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari, to'qimachilik va boshqalar mashinalar uchun detallar ishlab chiqaradi. Ko'nchilik O'zbekistonda hunarmandchilikning qadimgi turi sifatida mavjud. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon shaharlarida, Xorazmda yuzlarcha ko'nchilik do'konlari bo'lib ularda teridan turli nav charmlar tayyorlangan. XIX asrning so'nggi choragida mahalliy bozorlarda Yevropa shaharlaridan xrom, shagren, upuka teri turlari va ulardan tikilgan poyabzallar keltirib sotila boshladi.

Tarmoqdagi birinchi eng yirik korxona – Toshkent ko'n zavodi 1923 yil ishga tushirildi. 1941-1945 yillarda Xonobodda (Andijon viloyati) teri oshlash

zavodi, po'stin uchun qo'y terisini oshlaydigan 2 korxona ishga tushirildi. 1966 yil Toshkentda yangi ko'n zavodi, 1968 yil sun'iy charm va plyonka materiallari zavodi foydalanishga topshirildi.

Ko'nchilik sohasidagi barcha zavodlar negizida Toshkentda «O'zbekiston» ko'n va sun'iy charm ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi (1966; 1994 yildan «Charm» korporatsiyasi).

O'zbekistonda poyabzal tikish o'z an'analariga ega. Qadimdan poyabzal tikuvchi kosiblar qo'lida har xil andoza va turda etik, maxsi, kavush tikanlar. Poyabzal sanoati korxonalari paydo bo'lishi bilan tufli, botinka, sandal, shippak, piyma, kalish hamda maxsus ish poyabzallari ishlab chiqarila boshladi.

1927 yil Toshkentda poyabzal fabrikasi ishga tushirildi (1989 yildan Fahmuddin Xo'jayev nomidagi poyabzal birlashmasi). 1935 yil Toshkentda yana bir poyabzal fabrikasi (1988 yildan 2-poyabzal ishlab chiqarish birlashmasi), Buxoro (1938), Samarqand, To'rtko'l, Termiz (1939), Andijon, Qo'qon, Chirchiq, Namangan (1940) shaharlarida kichikroq poyabzal fabrikalari foydalanishga topshirildi. 1940 yilga kelib respublikada keng tarmoqli poaybzal sanoati vujudga keldi.

Urushdan keyingi davrda Yangiyo'l poyabzal fabrikasi (1960), Farg'ona poyabzal fabrikasi (1969) ishga tushirildi. Toshkentdag'i 1 va 2-poyabzal fabrikalari, Chirchiq, Qo'qon poyabzal fabrikalari kengaytirildi va qayta jihozlandi, korxonalar mahsulot turlari bo'yicha ixtisoslashdi.

1995 yil «Farg'onapoyabzal» aksiyadorlik jamiyati bilan Germaniyaning «Salamander» firmasi ishtirokida «o'zsalaman» qo'shma korxonasi mahsulot chiqara boshladi.

Respublikada charm-poyabzal tarmog'i boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadlarida tarmoqda yagona rahbarlikni amalga oshiradigan, ko'nchilik, poyabzal, teri-charm mahsulotlari, shuningdek iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, teri tayyorlash bilan shug'ullanadigan korxonalarini o'z ichiga olgan «o'zbekcharmpoyabzali» uyushmasi tashkil etildi (2000 yil 23 fevral). Uyushmaning barcha viloyatlarda teri xom ashyosini tayyorlash bilan

shug'ullanadigan viloyatlar savdo-xarid korxonalari, terini qayta ishlash; poyabzal; charm-attorlik mahsulotlari; sun'iy charm, karton, noto'qima materiallar ishlab chiqarish korxonalari bor.

Uyushma tarkibida 15 ta terini qayta ishlash zavodlari (eng yiriklari: yillik quvvati 35,4 mln dm<sup>2</sup> charm bo'lgan «O'zbekiston» va yillik quvvati 40 mln dm<sup>2</sup> bo'lgan «Ko'nchi» aksiyadorlik jamiyatları), 22 ta poyabzal ishlab chiqarish zavodlari {yiriklari: «o'zSalaman» (yillik quvvati 500 ming juft), «Kibo bolalar poyabzali» (330 ming juft) qo'shma korxonalari; «Toshkent poaybzali» (567 ming juft), «Qo'qon poyabzali» (1182 ming juft), «Farg'ona poyabzali» (860 ming juft), Buxoro «Naqshbandiy» (748 ming juft) aksiyadorlik jamiyatları}, 4 ta charm-attorlik korxonalari faoliyat ko'rsatadi.

## MO'YNA SANOATI

O'zbekistonda mo'ynado'zlik bilan qadimda yakka hunarmandlar shug'ullangan. Oshlangan qo'y terisidan po'stin, telpak va h.k. tikilgan. 20-yillardan hunarmandlar artellarga birlashtirildi. Toshkent ko'n-mo'yna zavodi 1956 yil charm-galantereya buyumlari kombinati nomi bilan tashkil qilingan. Ayollar va bolalar paltosi, bosh kiyimlar, astari mo'yna, avrasi gazlama bo'lgan buyumlar ishlab chiqargan. «Buxoro qorako'li» aksiyadorlik jamiyatida qorako'l terilariga ishlov beriladi. 70-80-yillardan respublikada, ayniqsa Qoraqalpog'istonda mo'ynali hayvonlar – ondatra, nutriya, qunduz kabi mo'ynali hayvonlarni sanoat usulida boqish, ya'ni darrandachilik yo'lga qo'yildi. 1996 yilda Namangan shahrida so'n'iy mo'yna fabrikasi (O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi) ishga tushirildi. Keyingi yillarda mo'ynali kiyim-kechaklar ishlab chiqaradigan sexlar, qo'shma, kichik va xususiy korxonalar tashkil topdi. O'zbekiston qorako'li va undan tayyorlangan po'stin, beretka, manto va boshqa mahsulotlar xalqaro bozorlarda yuqori qadrlanadi. «o'zbek qorako'li» kompaniyasi (1998) tarkibidagi xo'jaliklar va korxonalar qorako'l teri yetishtirish, uni oshlash, qorako'lidan tikilgan turli kiyim-boshlar ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanadi (2005 yilda O'zbekistonda 675,2 ming dona qorako'l teri

tayyorlandi). Respublikaning o'zida tayyorlangan va chetdan keltirilgan mo'ynalar (ondatra, nutriya, qunduz va boshqalar terisi) dan ustki va bosh kiyimlari tikiladi.

### **CHINNI-FAYANS SANOATI**

O'zbekistonda chinni-fayans sanoati, asosan 50-yillardan rivojlana boshladi. Tarmoqdagi birinchi zamonaviy korxona hozirgi «Abdurauf Ibrohimov nomidagi Toshkent chinni zavodi» aksiyadorlik jamiyati 1952 yil ishga tushirilgan (yillik quvvati 31 mln dona mahsulot). 1970 yil Samarqand chinni zavodi (yillik quvvati 22 mln dona mahsulot; hozirgi «Nafis» aksiyadorlik jamiyati) va 1978 yilda Quvasoy chinni zavodi (yillik quvvati 28 mln dona mahsulot; hozirgi «Quvasoy chinnisi» aksiyadorlik jamiyati) ishga tushirildi. Bu korxonalarda ro'zg'orda ishlatiladigan chinni buyumlar (kosa, piyola, choynak, lagan, esdalik-sovg'a buyumlari va boshqalar) ishlab chiqariladi. Toshkent chinni zavodida ishlab chiqariladigan «OQ oltin» («Paxta»), «Tong», Samarqand chinni zavodida ishlab chiqariladigan «Uzum» va boshqa to'plamlar xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

1967 yilda Angren keramika kombinatining ishga tushirilishi bilan O'zbekistonda fanyas (dag'al chinni) dan turli xil chinni taxtacha, sirlangan koshin va boshqalar sanitariya-qurilish fayans mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Mahalliy sanoatdagi kulollik korxonalarida maxsus rangli tuproqdan sirlab tayyorlangan sopol-mayolika buyumlar, qurilish materiallari ham ishlab chiqariladi. 2005 yilda O'zbekiston chinni-fayans sanoatida 2449,1 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

### **MEBEL SANOATI**

Mebel sanoati usulida ishlab chiqarila boshlagunga qadar uy-ro'zg'or mebellari (xontaxta, kursi, jovon, sandiq va b.) kustar va yarim kustar korxonalarda tayyorlangan. O'zbekistonda mebel sanoatining dastlabki mahsulotlari-turar joy va jamoat binolari uchun mebel ishlab chiqarish 1922 yildan boshlangan. Uy-ro'zg'or va jamoat ehtiyojlari uchun mebellar ishlab chiqarish 2-jahon urushidan keyingi yillarda birmuncha rivoj topdi. 50- yillar

oxirida respublikada turli vazirlilik va idoralar ixtiyorida bo'lgan 3 fabrika, bir necha sexlar ishlagan. Hunarmandchilik artellari va yirik mebel sexlari negizida Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon shaharlarida mebel fabrikalari barpo qilindi. 1962 yil o'rta Osiyo xalq xo'jaligi Kengashining ixtisoslashtirilgan mebel va yog'ochsozlik sanoati boshqarmasi tuzildi. 1965 yil O'zbekistonda mebel ishlab chiqaradigan 12 korxona ishladi. 1977 yil O'zbekiston mebel va yog'ochsozlik sanoati vazirligi tashkil etildi. Respublika mebel sanoati to'liq assortimentdagi mebellarni tayyorlashga o'tdi. 1988 yil respublikadagi barcha mebel sanoati korxonalarini boshqaradigan «o'zbekmebel» birlashmasi tashkil etildi. 1991 yil shu birlashma negizida «o'zbekmebel» ijara korxonalari uyushmasi tuzildi. 1993 yil yanvarda uyushma «o'zbekmebel» davlat-aksiyadorlik birlashmasiga aylantirildi. Birlashma tarkibida 36 mebel ishlab chiqaradigan aksiyadorlik birlashma va korxonalari: «Yangiyo'l» ishlab chiqarish-tijorat shirkati, 13 mebel fabrikasi, 3 ta mebel ishlab chiqarish birlashmasi, 6 mebel birlashmasi, «o'zbekqog'oz» ijara korxonasi, mebel ko'zgusi korxonasi, yog'och kesish stanoklari zavodi, firma magazinlari faoliyat ko'rsatdi. «Toshkent» mebel birlashmasi (1978), «Mirobod» birlashmasi (1953), Samarqand mebel birlashmasi (1954), «Namangan» mebel birlashmasi (1956), «Mebel» birlashmasi (1959), «Farg'ona mebel» birlashmasi (1960), Olmaliq mebel kombinati (1961), «Yangiyo'lmebel» shirkati (1963), Quva mebel kombinati (1967), Sergeli mebel birlashmasi (1974), Olmazor yumshoq mebellar fabrikasi (1989), Andijon mebel kombinati (1991 yil qayta qurilgan), Jizzax va Rishton mebel fabrikalari (1994) turli maqsadlarga mo'ljallangan zamonaviy mebellarni ishlab chiqarishga o'tdi. 90-yillarning 2-yarmidan mebel sanoati korxonalari xususiyashtirildi va «o'zbekmebel» davlat-aksiyadorlik birlashmasi tugatildi. Tarmoqni rivojlantirish kichik va o'rta xususiy korxonalar tashkil etish, korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan qayta jihozlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarning eksport imkoniyatlarini oshirish, xorijiy firmalar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish hamda iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish yo'naliшlarida olib borildi. O'zbekistonda tayyorlangan mebellar eksporti yo'lga

qo'yildi. 1997 yilda mahalliy sanoat korporatsiyasining bir necha korxonalarini va «Fayz» qo'shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati negizida mebel sanoatidagi yirik «Fayz» xolding kompaniyasi tashkil topdi. Kompaniya tarkibida 30 korxona va tashkilot, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi 10 ta qo'shma korxona bor. Kompaniya korxonalarida yumshoq va ofis mebellari, oshxona mebellari, yotoqxona to'plamlari, mакtablar va o'quv yurtlari, bolalar sporti, mehmonaxonalar uchun mebellar, ma'muriy binolarni bezash mebellari, porolon, gugurt ishlab chiqariladi.

## **TEST**

1. Paxta tozalash zavodlari, pilakashlik, yigiruv-to'quv, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari qachondan qurila boshladi?
  - A. 1918 yildan
  - B. 1920 yildan
  - V. 1925 yildan
  
2. O'zbekengilsanoat davlat-aksiyadorlik kompaniyasi nechanchi yilda tashkil etilgan?
  - A. 1998 yil
  - B. 2001 yil
  - V. 2002 yil
  
3. 2005 yilda O'zbekiston sanoat mahsuloti umumiy hajmida yengil sanoatning ulushi necha % ni tashkil etgan?
  - A. 16,9 %
  - B. 19 %
  - V. 20,1 %
  
4. Yengil sanoat tarmoqlari orasida qaysi sanoat yetakchi o'rinda turadi?
  - A. Tikuvchilik sanoati
  - B. Ipakchilik sanoati
  - V. Paxta tozalash sanoati
  
5. Paxta tozalash sanoati qaysi sanoat tarmoqlariga xomashyo yetkazib beradi?
  - A. Ip-yigiruv, to'qimachilik, yog'-moy, kimyo sanoatlariga
  - B. Ko'n-poyabzal, mebel, mo'yna, to'qimachilik sanoatlariga
  - V. Trikotaj, kimyo, ip-yigiruv sanoatlariga

6. O'zbekiston jahonda paxta yetishtirish bo'yicha nechanchi o'rinda turadi?
- A. 2-o'rinda  
B. 5-o'rinda  
V. 4-o'rinda
7. O'zbekistonda 56 qozonli mexanik stanok o'rnatilgan birinchi pillakashlik fabrikasi qachon va qayerda ish boshladi?
- A. 1921 yil, Farg'ona shahrida  
B. 1922 yil, Andijon shahrida  
V. 1925 yil, Samarqand shahrida
8. Sun'iy ipak gazlamalar to'qish qachon boshlandi?
- A. 1929 yilda  
B. 1934 yilda  
V. 1937 yilda
9. Toshkentda 1989 yildan buyon Fahmuddin Xo'jayev nomi bilan atalib kelayotgan poyabzal birlashmasi nechanchi yilda ishga tushirilgan?
- A. 1927 yilda  
B. 1931 yilda  
V. 1934 yilda
10. O'zbekistonda chinni-fayans sanoati nechanchi yillardan boshlab rivojlangan?
- A. 40-yillarda  
B. 50-yillarda  
V. 60-yillarda
11. Paxtadan tola chiqishi o'rtacha necha % ni tashkil etadi?
- A. 21-22 % ni  
B. 28-30 % ni  
V. 31-32 % ni

12. Tolasi ajratib olingan texnik chigitlar qayerda qayta ishlanadi?

- A. To'qimachilik sanoatida
- B. Ip-yigiruv sanoatida
- V. Yog'-moy kombintalarida

13. O'zbekistondagi «O'zSalamander» qo'shma korxonasi qaysi davlat bilan hamkorlikda barpo etilgan?

- A. Italiya bilan
- B. Turkiya bilan
- V. Germaniya bilan

14. Trikotaj mahsulotlari 2005 yilda necha mln dona ishlab chiqarilgan?

- A. 38,9 mln dona
- B. 32,1 mln dona
- V. 28,6 mln dona

15. O'zbekiston paxta tolasi eksporti bo'yicha nechanchi o'rinni egallaydi?

- A. 2-o'rinni
- B. 3-o'rinni
- V. 4-o'rinni

16. Birinchi bug'da ishlaydigan paxta tozalash zavodi nechanchi yilda qurilgan?

- A. 1974 yilda
- B. 1882 yilda
- V. 1887 yilda

17. Yulduz Oxunboboyev nomidagi Toshkent bosh kiyimlar fabrikasi nechanchi yilda ishga tushirildi?

- A. 1962 yilda
- B. 1963 yilda
- V. 1965 yilda

18. Qadimda o'rta Osiyodagi shoyi gazlamalar qayerlarga chiqarilgan?

- A. Yevropa va Amerika mamlakatlariga
- B. Yevropa va Afrika mamlakatlariga
- V. Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga

19. 1926 yilda ishga tushirilgan «Qizil tong» tikuv fabrikasi qayerda joylashgan?

- A. Samarqandda
- B. Toshkentda
- V. Namanganda

20. Respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasining qancha qismi eksport qilinadi?

- A. 85-90 %
- B. 60-65 %
- V. 30-40 %

21. Shveysariyaning qaysi firmasi bilan bиргаликда to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaridgan qo'shma korxona ishga tushirilgan?

- A. «Tipash»
- B. «Marubeni»
- V. «Vimoteks»

22. 2004 yilda sanoat korxonalarida qancha tola qayta ishlandi?

- A. 240 ming tonna
- B. 255 ming tonna
- V. 270 ming tonna

23. 1939 yilda o'rta Osiyodagi eng yirik hisoblangan paypoq fabrikasi qayerda joylashgan?

- A. Andijonda
- B. Toshkentda
- V. Ko'qonda

24. Toshkentda 1942 yilda ishga tushirilgan eng yirik trikotaj ishlab chiqarish korxonasining nomi nima?
- A. Malika  
B. Gurlan  
V. Shovotteks
25. O'zbekiston nechanchi yildan boshlab jahondagi eng yirik Liverpul paxta birjasи bilan hamkorlik qilmoqda?
- A. 1993 yildan  
B. 1995 yildan  
V. 1996 yildan
26. 1992 yil 7-noyabrda Respublika Prezidenti farmoni bilan tashkil etilgan paxtani qayta ishslash va paxta mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi davlat-aksiyadorlik uyushmasini nomi nima?
- A. «O'zpaxtasanoat»  
B. «Paxta tozalash IIB»  
V. «O'zdavpaxtasanoat» sotish
27. Toshkent to'qimachilik kombinat iva Farg'ona yigiruv-to'quv fabrikasi 1945 yilda respublikada ishlab chiqarilgan jami ip gazlamaning necha % ini berdi?
- A. 89,5 %  
B. 95,4 %  
V. 98,4 %
28. Trikotaj sanoati tarmog'idagi eng yirik korxonalar qaysilar?
- A. Malika, Gurlan, Bofanda, Namangan trikotaj  
B. Mushtariy, G'uncha, Xiva, Malika  
V. Qizil tong, Sifat, Tipash, Gurlan

29. O'zbekistondagi eng birinchi tikuvchilik korxonasi Toshkentdagি qaysi aksiyadorlik jamiyatiga qarashli edi?
- A. «Modalar uyi» aksiyadorlik jamiyatiga  
B. «Yulduzi» aksiyadorlik jamiyatiga  
V. «Lui-Zalm va uning o'g'illari» aksiyadorlik jamiyatiga
30. Respublikada keng tarmoqli poyabzal sanoati nechanchi yilda vujudga keldi?
- A. 1937 yilda  
B. 1940 yilda  
V. 1942 yilda
31. 1996 yilda ishga tushirilgan sun'iy mo'yna fabrikasi, ya'ni O'zbekiston Germaniya qo'shma korxonasi qayerda joylashgan?
- A. Namangan shahrida  
B. Samarqand shahrida  
V. Toshkent shahrida
32. Hozirgi paxta tozalash sanoati tarmog'ida qancha zavod faoliyat ko'rstanmoqda?
- A. 128 ta  
B. 208 ta  
V. 120 ta
33. «o'zbek ipagi» uyushmasi qaysi kompaniyalarning birlashmasidan tashkil topgan?
- A. Buyuk Ipak yo'li va Atlas aksiyadorlik kompaniyalari  
B. «Ipakchi» va Buyuk Ipak yo'li aksiyadorlik kompaniyalari  
V. «Shoyi» aksiyadorlik kompaniyasi va «Pillaxolding» kompanisi

34. XIX asrning so'nggi choragida mahalliy bozorlarda qaysi mamlakat shaharlaridan keltirilgan poyabzallar sotila boshlangan?

- A. Osiyo shaharlaridan
- B. Yevropa shaharlaridan
- V. AQSh shaharlaridan

35. O'zbekistonda eng birinchi tikuvchilik korxonasi nechanchi yilda qurilgan?

- A. 1903 yilda
- B. 1910 yilda
- V. 1907 yilda

36. O'zbekiston paxta tolasi bo'yicha tarmoq korxonalarida jahon standartlariga o'tish uchun qaysi mamlakatlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi?

- A. AQSh, Shveysariya
- B. AQSh, Turkiya
- V. Turkiya, Janubiy Koreya

37. 80-yillar Toshkent shahrida nechta to'qimachilik fabrikalari qurildi?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- V. 5 ta

38. Respublikada 30-40-yillarda qaysi sanoat tarmoqlari shakllangan?

- A. Paxta tozalash sanoati
- B. To'qimachilik sanoati
- V. Trikotaj sanoati

39. «O'zbek qorako'li» kompaniyasi nechanchi yilda ishga tushirilgan?

- A. 1993 yilda
- B. 1998 yilda
- V. 2002 yilda

40. 1967 yilda qaysi kompaniyaning ishga tushirilishi bilan O'zbekistonda fayansdan turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi?

A. Angren keramik

B. Oq oltin

V. Nafis

**1.quyidagi omillardan qaysi biri yengil sanoatni joylashtirishga eng ko'p ta'sir ko'rsatadi?**

a) xom ashyo;

b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) transport.

**2. Yengil sanoat korxonalarini joylashtirishga eng ko'p ta'sir etuvchi omilni ko'rsating:**

a) xom ashyo;

b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) infrastruktura.

**3. Yengil sanoat korxonalarini joylashtirishga eng ko'p ta'sir etuvchi omilni ko'rsating:**

a) xom ashyo;

b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) infrastruktura.

**4. Yengil sanoat korxonalarini joylashtirishga eng ko'p ta'sir etuvchi omilni ko'rsating:**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) infrastruktura.

**5. Quyida berilgan omillardan qaysi biri paxta tolali matolar ishlab chiqarishni joylashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) infrastruktura.

**6. Paxta tolali matolar ishlab chiqarishni joylashtirishga eng kam ta'sir etuvchi omilni ko'rsating:**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) infrastruktura.

**7. Quyidagi omillardan qaysi biri ipak matolari ishlab chiqarishni joylashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) transport.

**8. Quyida berilgan omillardan qaysi biri ipak matolari ishlab chiqarishni joylashtirishga kam ta'sir ko'rsatadi?**

a) xom ashyo;

b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) transport.

**9. Bo'z matolari ishlab chiqarishni joylashtirishga kuchli ta'sir etuvchi omilni ko'rsating:**

a) xom ashyo;

b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) transport.

**10. Tikuvchilik sanoatini joylashtirishga eng ko'p ta'sir etuvchi omil qaysi?**

a) xom ashyo;

b) yoqilg'i-energetika;

v) mehnat resursi;

g) iste'mol;

d) infrastruktura.

**11. Quyidagi omillardan qaysi biri poyafzal sanoatini joylashtirishga eng ko'p ta'sir etadi?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) transport.

**12. Quyida keltirilgan sanoat tarmoqlarining qaysi birida mehnat omili yetakchilik qiladi?**

- a) elektroenergetika;
- b) qora metallurgiya;
- v) qurilish materiallari sanoati;
- g) yengil;
- d) oziq-ovqat.

**13. Paxta xom ashvosining taxminan necha foizini tola tashkil etadi:**

- a) 20%;
- b) 45%;
- v) 40%;
- g) 33%;
- d) 50%.

### **III bob. O'ZBEKISTONNING OZIQ-OVQAT SANOATI TARMOQLARI**

#### **GEOGRFIYASI**

##### **2.1 O'ZBEKISTONNING OZIQ-OVQAT SANOATI TARMOQLARIGA UMUMIY TARIF**

Qishloq xo'jaligi rivojlangan O'zbekistonda sanoatning bu turi qadimdan shakllangan va rivojlanish bosqichini davrlararo o'tagan. Dastlab suv tegirmonlarida un, objuvozlarda guruch, juvozlarda o'simlik moyi, novvoyxonalarda nonlar tayyorlangan, qandolatchilar turli xil shirinlik (novvot, qurşechak)lar, uzumdan musallas, tariqdan bo'za va boshqa sharbatli va suyuq ichimliklar tayyorlaganlar.

##### **Oziq-ovqat sanoati asosiy ko'rsatgichlari**

	<b>2000</b>	<b>2001</b>	<b>2002</b>	<b>2003</b>	<b>2004</b>	<b>2005</b>	<b>2006</b>	<b>2007</b>
Mahsulot hajmi (mlrd so'm)	250,3	355,8	644,0	751,8	774,9	909,7	1308,8	<b>1715,7</b>
Maxsulot ishlab chiqarish o'sish surati (o'tgan yilga nis.% da)	108,5	109,4	119,2	106,0	104,4	111,8	130,2	<b>117,6</b>
Tarmoqlarda band kishilar (ming kishi) (o'tgan yilga ni % da)	117,4	115,6	114,3	104,8	95,6	95,5	90,7	<b>89,9</b>
Go'sht va go'sht maxsulotlari <i>o'tgan yilga nis % da</i>	127,1	122,3	147,4	169,6	177,6	152,7	157,8	<b>155,5</b>
Xayvon yog'i ming t <i>o'tgan yilga nis % da</i>	2,2	2,1	1,9	1,6	1,7	1,7	3,0	2,0
	104,0	93,7	91,5	83,8	101,1	103,5	176,5	67,6

Sut va sut maxsuloti ming t	182,4	186,9	216,6	255,9	271,1	250,6	268,6	267,9
<i>o'tgan yilga nis % da</i>	91,2	102,5	115,9	119,6	105,9	92,1	107,2	99,7
Pishloq	1,2	1,2	0,7	0,7	0,8	0,9	0,5	0,3
<i>o'tgan yilga nis % da</i>	89,7	96,0	62,2	98,8	110,0	101,7	58,5	97,5
O'simlik yog'i ming t	245,9	236,8	222,2	218,5	222,7	261,7	293,5	280,7
<i>o'tgan yilga nis % da</i>	108,0	96,3	93,8	98,1	101,9	117,4	112,0	95,6
Shakar ming t	10,2	28,7	217,2	148,2	193,7	146,4	170,6	170,9
<i>o'tgan yilga nis % da</i>	48,6	2,8r	7,6r	114,2	78,0	75,6	116,5	100,2

Bugun O'zbekiston xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoatining ulushi katta va salohiyati o'zgacha. Sanoatning mazkur turi asosan mahalliy (qishloq xo'jaligi) xom ashyoga tayanadi. Respublika yalpi sanoat mahsulotining salkam 10 foizi oziq-ovqat sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Tarmoq ko'p xil. Unda sut va go'sht, yog'-moy va baliq mahsulotlari, un va un mahsulotlari, meva-sabzavot va konservalar, uzum va meva materiallari, spirt, aroq, pivo, tamaki, chanqovbosar ichimliklar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishdari yo'lga qo'yilgan.

Oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmog'i go'sht ishlab chiqarishdir. o'tmishda mahalliy aholi ot go'shtidan qazi, qoramol go'shtidan uzoq saqlanadigan, quritilgan va qovurilgan go'sht mahsulotlari tayyorlashgan. 1932 yilga kelib go'sht sanoati respublika xalq xo'jaligi rejasiga alohida sanoat tarmog'i tarzida kiritilgan.


Endilikda respublikaning barcha viloyat markazlari va yirik shaharlarida go'sht kombnnatlari ishlab turibdi. "o'zgo'shtsutsanoat" uyushmasi tarkibida 23 ta yirik go'sht kombinata, go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan 45 ta xo'jalik, viloyat

tumanlarida esa bo'rdoqchilik yo'nalishidagi 100 dan ortiq o'rtalig'ida va kichik korxonalar bor.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizning turli geografik rayonlarida jamoa, davlat, shirkat va fermer xo'jaliklari va tadbirkorlar tomonidan zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan go'sht mahsulotlari va turli kolbasalar ishlab chiqaradigan ko'pgina kombinatlar qurildi. Jumladan, birgina "o'zbekbirlashuv" tarkibida kolbasa mahsuloti ishlab chiqaradigan 34 ta sex barpo qilindi. Respublika go'sht sanoatida Germaniya va Turkiya firmalari bilan hamkorlikda yarim tayyor go'sht (ya'ni, go'shtni pishirishga qiymalangan holda tayyorlangan) mahsulotlari ishlab chiqarish, go'shtni qadoqlash, ichak mahsulotlari tayyorlash va ularni o'rabi, iste'molga chiqarish ishlari yo'lga qo'yilan.

Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish ham oziq-ovqat sanoatining tarkibiy qismidir. Sanoatning ushbu turida sut-qatiq, sariyog', sut konservalari, quruq sut, pishloq, brinza, qaymoq, muzqaymoq, ayron, suzma, qag'anoq, qurt kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi. O'zbekistonda sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari juda ko'p. 1995 yilda tashkil qilingan birgina "o'zgo'shtsutsanoat" uyushmasi tarkibida 37 ta sut korxonasi, 118 ta sut qabul qilish punkti faoliyat ko'rsatmoqda.

## 2.2 Oziq-ovqat sanoatining tarmoqlari tarkibi



Oziq-ovqat sanoatining yana bir tarmog'i – yog'-moy ishlab chiqarishdir.

Sanoatning bu tarmog'ida paxta moyi ishlab chiqarish yetakchilik qiladi. Respublikada yiliga umumiyligi quvvati 3 mln. tonna moyli o'simlik urug'larini qayta ishlaydigan 20 dan ortiq korxona ishlab turibdi. Ularda asosan g'o'za urug'i, soya, raps, meva danaklari urug'laridan moy ishlab chiqariladi. o'simlik moyi ishlab chiqarishda yiliga 2,1 mln. t. atrofida chigit ishlatiladi. Respublika yog'-moy sanoati oziq-ovqat sanoati yalpi mahsulotining 40 foizini beradi. Eng yirik yog' ekstraksiya zavodlari Guliston, Kosonsoy, Farg'ona, Ko'qon, Kattako'rgon, Denov, Urganchdir.



Тошкент ёғ-мой комбинатининг маргарин ишлаб чиқариш линияси:

Tashkent Oil and Fat Factory, line for margarine production

Линия по производству маргарина на Ташкентском  
масложиркомбинате

Tarmoq korxonalarida texnologik jarayonlarni takomillashtirish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xorijiy firmalar bilan hamkorlikda qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish ishlari jadal olib borilmoqda. Korxonalarni texnikaviy jihatdan qayta jihozlashda Krupp, Sket (Germaniya), "Alfa-Laval" (Shvetsiya), "Jon Braun", "Karver", "Kraun" (AKSh), "Matsson", "Bollistra" (Italiya),

Rossiya, Ukraina, Polsha firmalari bilan hamkorlikda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakat oziq-ovqat sanoatida elevator sanoatining ham hissasi oshib Bu mamlakat aholisining un va un mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini to’la qondirish bilan bog’liq jarayon taqozosidir.

Yetishtirilgan donni faqat elevator xo’jaliklarida yaxshi saqlash mumkin. Shuning uchun ham mazkur sanoat tarmog’ini kengaytirish mamlakat oziq-ovqat sanoati xodimlarining galdeg’i eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. 1965 yilda respublikada umumiy sig’imi 674 ming t. bo’lgan 5 ta elevator va 226 ta g’alla ombori bo’lgan bo’lsa, endilikda elevatorlarning sig’imi bir necha marta oshgan. O’zbekistonda sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari juda ko’p. 1995 yilda tashkil qilingan birgina “o’zgo’shtutsanoat” uyushmasi tarkibida 37 ta sut korxonasi, 118 ta sut qabul qilish punkti faoliyat ko’rsatmoqda. Endilikda mamlakatda 45 ta elevator bor va ularning umumiy g’alla sig’imi 4,5 mln. tonna. Har yili yetishtiriladigan g’allaning o’rtacha 65 foizi elevatorlarda saqlanadi. Kayta jihozlangan va yangidan qurilgan elevatorlar avtomatik dispatcherlik boshqaruvi tizimlari, g’alla haroratini avtomatik tarzda masofadan turib o’lchaydigan qurilmalar bilan jihozlangan. Mamlakatimiz aholisining ehtiyojini qondirish maqsadida uning oziq-ovqat sanoati yildan-yilga ko’p mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlamoqda. Mamlakat oziq-ovqat sanoat korxonalarida 142,6 ming t. go’sht va go’sht mahsulotlari, 213,4 ming t. sut va sut mahsulotlari, 2,8 — 3 ming t. hayvon va 276 ming t. o’simlik yog’i, 54,2 ming t. makaron mahsulotlari, 542,2 ming t non va non mahsulotdari ishlab chiqarilmoqda



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda uning alohida o'rni bor. "o'zdonmahsulot" konserniga qarashli Farg'ona, Kuva, Yangiyo'l, Sho'rchi, Namangan, Samarqand, Buxoro, Kosoysoy va boshqa shaharlarda ko'p navdag'i un ishlab chiqaruvchi zavodlar, kombinatlar qurilgan. Respublikada sutkasiga 120 t.dan 500 tonnagacha don tortadigan 20dan ortiq korxona qurilgan, 44 korxona texnikaviy jihatdan qayta jihozlangan. Shuning uchun ham mamlakatda un ishlab chiqarish hajmi tez o'smoqda.

Non ishlab chiqarish asosan "o'zdonmahsulot" tarkibidadir. Unga 4 ta non ishlab chiqarish birlashmasi (Toshkent, Yangiyo'l, Farg'ona, Karshi) va 21 ta non zavodi qaraydi. "o'zbekbirlashuv" tizimida ham non ishlab chiqariladi. Bu tizimda 242 ta korxona, 3 mingga yaqin tandir (novvoyxona) va kichik korxonalar bor. Ularning har ikkisida sutkasiga 3575 tonnadan ko'proq (300 xildan ortiq) non mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Respublika oziq-ovqat sanoatida chorva mollari uchun omixta yem, sholidan turli navli guruch ishlab chiqariladi.

Guruch ishlab chiqarish xom ashyo rayonlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koraqalpog'istonda Taxiatosh, Xo'jayli, Konliko'l, Shumanay, Chimboy,

Xorazmda Urganch, Xonqa, Bog'ot, Surxondaryoda Muzrobod guruch zavoddari yirik korxonalardandir.

Respublikada meva va uzum, sabzavot va poliz mahsulotlaridan turli xil konservalar ishlab chiqarish keng quloch yozgan. Uning zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan sanoat korxonalarida meva kombinatlari, murabbolar, djem, sharbat, pomidor pastasi, quritilgan meva, qovun qoqi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Endilikda mamlakat oziq-ovqat sanoatida yana bir yangi tarmoq — qand-shakar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Sanoatning bu turini rivojlantirish aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, qand ishlab chiqarish uchun xom ashyo tarzida qand lavlagi yetishtirishga kirishildi. Mamlakatimizning serquyosh iqlimi sharoitida qand lavlagi o'simligining qandlilik darajasi yuqori bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham hukumat rejalashtirish tashkilotlari qand lavlagi yetishtirish miqyosini kengaytirishga alohida e'tibor bermoqda. Xorazmda, Toshkent va Samarqandda hamda boshqa viloyatlarda qand lavlagi ekish kengaytirilmoqda, ularni qayta ishlab, qand-shakar ishlab chiqarishga kirishildi.

1995—1997 yillarda Turkiya firmalari bilan hamkorlikda Xorazm viloyatining Xazorasp tumanida shakar zavodi qurildi. Zavod sutkasiga 3 ming tonna qand lavlagini qayta ishlash quvvatiga ega. Fransiyaning "FSB" firmasi Samarqand shahrida sutkasiga 6 ming tonna qand lavlagini qayta ishlaydigan zavod, shuningdek, ko'pgina viloyatlarda esa mini shakar zavodlari qurilmoqda.

Vino va mayiz ishlab chiqarish ham oziq-ovqat sanoatining alohida tarmog'i. Mazkur tarmoqda turli nav uzumlardan mayiz, uzum qiyomlari, turli nav vino, konyak, shampan vinosi, aroq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Vinochilikka ixtisoslashgan sanoat korxonalarining katta qismi "o'zmevasabzavotizimsanoat" uyushmasiga qaraydi.

Mamlakatdagi vino va aroq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat korxonalarining yillik ishlab chiqarish quvvati 25 mln. dG'l ga teng. Tarmoqda 16 ta yirik korxona bor. Vino mahsulotlari tayyorlash va quyish bilan 60 ga yaqin korxona shug'ullanadi. Jumladan, sohaga ixtisoslashgan "Toshkentvino"

kombinati, Toshkent shaman vinolari zavodi, Samarqand vino va Samarqand — “Zarafshon” vino kombinatlari, Yangiyo’l, Ko’qon, Buxoro, Shahrisabz, Denov va boshqa shaharlarda yirik korxonalar bor.

Vino sanoati korxonalarida tayyorlanayotgan oq, qizil, desert vinolar (“O’zbekiston”, “Vassarga”, “Buvaki”, “Yumalok” va h. k.) dunyoning xalqaro ko’razmalarida 100 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlangan.

Respublikada pivo va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish ham keng rivojlantirilgan. Sanoatni ushbu tarmog’ida yiliga 17,7 mln. dal. pivo, 20 dal. chanqovbosti ichimliklar, 380 mln. shisha mineral suv ishlab chiqariladi.

Respublika osh tuzi yaqin vaqtlargacha o’zga regionlardan keltirar edi. 1991 yildan boshlab mamlakatning osh tuziga bo’lgan ehtiyoji mahalliy xom ashyo hisobiga qondirilmoqda. Koraqalpog’istonning Ko’ng’irot tumanida yiliga 100 ming t., Surxondaryoning Sherobod tumani (Xo’jaikon)da yiliga 150—200 ming t. osh tuzi qazib olinmoqda va aholi keng iste’moliga chiqarilmoqda.

Samarqandda choy qadoqlash fabrikasida Hindiston, Xitoy, Gurjiston, Turkiya, Indoneziyadan keltirilgan choylarga ishlov berilmoqda va qadoqlanmoqda. Korxona chet el dastgohlari bilan jihozlangan bo’lib, yiliga 11—12 ming t. choy qadoqlaydi.

Shunday qilib mustaqillik yillarida mamlakatimiz sanoati jadal rivojlanmoqda, tarmoqlari ko’paymoqda. Ammo uning hududiy joylanishida hali ham tafovutlar katta. Respublikamiz sanoatida Farg’ona (13,0 foiz), Toshkent (11,8 foiz), Andijon (9,8 foiz) viloyatlarining salmog’i yuqori bo’lgani holda Sirdaryo (1,2 foiz), Jizzax (1,1 foiz), Koraqalpog’iston Respublikasi (2,2 foiz) va Surxondaryo (2,4 foiz) viloyatlarida bu ko’rsatkich juda past. Yaqin kelajakda barcha viloyatlarning sanoat rivojlanish imkoniyatlarini to’la ishga solish, samaradorligini oshirish respublika iqtisodiyotini qayta qurishning navbatdagi asosiy vazifalaridan biriga aylanmog’i lozim.

**1 . Quyida berilgan omillardan qaysi biri shakar sanoatini joylashtirishga eng ko'p ta'sir etadi?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) transport.

**2. Yog' ishlab chiqarishga qaysi omil eng ko'p ta'sir etadi?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) transport.

**3. Baliq konserva sanoatini joylashtirishda qaysi omilning ta'siri kuchli?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) transport.

**4. Quyidagi omillardan qaysi biri non sanoatini joylashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi?**

- a) xom ashyo;
- b) yoqilg'i-energetika;
- v) mehnat resursi;
- g) iste'mol;
- d) infratuzilma.

## XULOSA

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan belgilanadi, ya`ni geografiya fani qanchalik rivojlansa, maktab geografiyasi ham unga bog`liq hamda shunchalik rivojlanishda bo`ladi. Geografiya ta`limi jarayonida o`quvchilar asosiy geografik tushunchalar va qonuniyatlar tizimini egalashlari kerak. Hozirgi kunda iqtisodiy geografiyanı o`rganish o`quvchilarga iqtisodiy geografik o`rni, tabiiy sharoit va boyliklarga iqtisodiy jihatdan baho berish, hududiy ishlab chiqarish majmuasi, geografik mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, iqtisodiy rayonlar, agrosanoat kompleksi, shaharlar, qishloqlar kabi tushuncha va kategoriylar haqida bilimlar berishi lozim. Ayniqsa o`quvchilar hududiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishni joylashtirishning muhim qonuniyatları va bozor iqtisodi munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan unga tushunchalarni puxta egallashlari kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – bu raqobat, ya`ni bellashuv, raqiblar kurashi ham sanoat sohasida rivoj topadi. Ilg`or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko`tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko`tarish uchun harakat va boshqa mehnat an`analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va kelmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va Davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning yetakchi o`rnini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo`nalishlari va ularning yechimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda.

Umuman yengil sanoatning o`ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, jahon miqyosida yengil sanoat tarmog`i mahsulotlariga bo`lgan talab juda katta. Shuning uchun mamlkatimiz yengil sanoatiga qo'shimcha investitsiyalarini kiritish zarurati oshmoqda. Yengil sanoat korxonalariga chet el investitsiyalarining keng

miqyosdagi jalg etilishi nafaqat ishlab chiqarish hajmi va sifatini o'sishiga, balki respublika iqtisodiyotining tarkibiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugun O'zbekiston xalq xo'jaligida oziq-ovqat sanoatining ulushi katta va salohiyati o'zgacha. Sanoatning mazkur turi asosan mahalliy (qishloq xo'jaligi) xom ashyoga tayanadi. Respublika yalpi sanoat mahsulotining salkam 10 foizi oziq-ovqat sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Tarmoq ko'p xil. Unda sut va go'sht, yog'-moy va baliq mahsulotlari, un va un mahsulotlari, meva-sabzavot va konservalar, uzum va meva materiallari, spirt, aroq, pivo, tamaki, chanqovbosar ichimliklar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishdari yo'lga qo'yilgan.

## **A D A B I Y O T L A R**

1. Alekseev A.I. Mnogolikaya derevnya (naseleniye i territoriya). -M., 1990. -266 s.
2. Asanov G. Aholi geografiyasi.-T.: O'qituvchi, 2003.-304 b.
3. Borisov V.A. Demografiya.-M., 2001.-272 s.
4. Bo'riyeva M. O'zbekistonda oila demografiyasi.-T.: Universitet, 1997. -134 b.
5. Demograficheskiye obrazovaniye v 21 veke v stranax SNG, Baltii i Vostochnoy Yevropy'-M., 2002.-307 s.
6. Maksanova L.P. Migratsiya naseleniya: problemo' regulirovaniya. -T., 2001.-184 s.
7. Migratsiya naseleniya. Vo'pusk pervo'y. Teoriya i praktika issledovaniya. -M., 2001. -176 s.
8. Mulyadjanov I.R. Demograficheskoye razvitiye Uzbekistana. -T: Uzbekistan, 1983.-278 s.
9. Nazarov M.I., Tojiyeva Z.N. Ijtimoiy geografiya. O'quv qo'llanma.-T., 2003.-90 b.
10. Naseleniye Rossii na rubeje vekov. Problemo' i perspektivo'.-M., 2002.-352 s.
11. Sovremennoye selo: puti razvitiya. Voproso' geografii. Sb.132.-M.: Mo'sl, 1988.-254 s.
12. Soliyev A., Ahmedov E., Mahamadaliyev R. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot.-T.: Universitet, 2003.-304 b.
13. Soliyev A., Karshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari.-T., 1999. -184 b.
14. Sotsialno-demograficheskoye razvitiye sela. Regionalno'y analiz. -M.: Statistika, 1980.-340 s.
15. Tojiyeva Z. N. Iqtisodiy va demografik statistika. O'quv qo'llanma.-T., 2002.-160 b.
16. Urlanis B.S. Obhaya teoriya statistiki.-M.: Statistika, 1973.-440 s.